

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI**

**S.A.GANIXADJAYEV,
N.A.RAXMANOVA**

JOZIBALI PARDOZLASH VA GRIM

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

Qayta ishlangan ikkinchi nashr

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2016

UO‘K: 792.024(075.32)

KBK: 38.937

Taqrizchilar: *O‘zbekiston Sartaroshlar uyushmasining raisi,*

F.Shomurodov;

*Toshkent tuzizm va biznes kasb-hunar kolleji, Maxsus fanlar
kafedrasining katta o‘qituvchisi, L.S.Toshmatova*

S.A. Ganixadjayev

G19 **Jozibali pardoqlash va grim:** O‘quv qo‘llanma / S.A.
Ganixadjayev, N.A.Raxmanova; – T.: «Iqtisod-Moliya»,
2016. - 64 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma kosmetologiya va grim bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar tayyorlash, dekorativ kosmetika va grim vositasi bilan ishlash, ularni nozik didli va yuqori madaniyatli bo‘lishlari, maishiy xizmat madaniyati talablarini yuqori darajaga ko‘tarish, grim qilish sexlarida, teatrlarda hamda telestudiyalarda ishlash uchun yosh kadrlarni tayyorlashga mo‘ljallangan bo‘lib, zamonaviy sartaroshxonalarning yuqori darajadagi talablariga javob beradi. Qo‘llanma keng ixtisosli sartarosh va kosmetolog vizajist yo‘nalishida tahsil oluvchi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 792.024(075.32)

KBK: 38.937

ISBN 978-9943-13-616-8

© «IQTISOD-MOLIYA», 2016

© S.A. Ganixadjayev,

N.A.Raxmanova, 2016

MUNDARIJA

Kirish.....	4
-------------	---

1-bob. Gigiyenik va profilaktik parvarish

1.1. Yuz terisining turlari, uning tavsifi va parvarishi.....	8
1.2. Demakiyaj – tozalash.....	11
1.3. Yuz va bo'yinning gigiyenik massaji.....	12
1.4. Qosh va kiprikni bo'yash. Qoshni resfeder (pinset) bilan epilyatsiyalash.....	14

2-bob. Sahnaviy grim asoslari

2.1. Anatomik grim	17
2.2. Yuz qismlarining grimi.....	19
2.3. To'la va ozg'in yuzning grimi.....	24
2.4. Yosh yuzning grimi	26
2.5. Haykaltarosh - hajmiylik grimyori.....	29
2.6. Yoshga oid grim	31
2.7. Xarakterga oid grim	33
2.8. Anatomik grim	39

3-bob. Makiyaj texnikasi

3.1. Makiyajni tasviriy va texnikaviy usullari	42
3.2. Yuz shakli, qismlari va mutanosibligi . “Yuzni o'qish”	48
3.3. Makiyaj turlari va uning maqsadi makiyaj va modaning yo'nalishi.....	50

4-bob. Makiyaj texnologiyasi

4.1. Oddiyva murakkab makiyaj texnologiyasi	52
4.2. Yuz shaklini va qismlarini korreksiyalash	57
Foydalanilgan adabiyotlar.....	61
Xulosa	62

KIRISH

Go‘zallik o‘z-o‘zidan bunyod bo‘lavermaydi. Go‘zallik tabiat in’omi bo‘libgina qolmay, u o‘ziga nisbatan e’tibor, parvarish ham talab qiladi.

Grim bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar nozik didli va yuqori madaniyatli bo‘lishlari lozim. Hech kimga sir emaski, maishiy xizmat madaniyati talablari yuqori darajaga o‘sib kelsa ham ba’zida grimchilarga kerakli e’tibor bilan qarashmaydi. Grimchi kasbi bir necha kasblar bilan o‘zaro bog‘liqdir (grimchi, postijchi, sartarosh). Grimchilar grim qilish sexlarida, teatrlarda hamda telestudiyalarda ishlaydilar. Grimchi faqat grim qilishni emas, balki sochni turmaklash va kesishni, niqoblar tayyorlashni va postij mahsulotlarini tayyorlashni bilishlari shart. Odamlar hamma davrlarda grimga qiziqish bilan qarashgan. Grim dekorativ kosmetikaning bir qismidir. Chunki ularni ko‘p narsa birlashtiradi. Grim sahnada obraz yaratishda katta yordam beradi. Grim orqali sahna ko‘rinishining g‘oyaviy-badiiy mazmuni ochib beriladi. Grim bevosita sahna ko‘rinishining stilistika, janr va madaniyati bilan bog‘liqdir.

“Jozibali pardoqlash va grim” o‘quv qo‘llanmasining maqsadi – yuzni va bo‘yinni gigiyenik hamda profilaktik parvarishlash, kosmetik muolajalar, makiyaj texnikasi va texnologiyasini amaliyotda bajarishdir. Bu fanni o‘rganishda, o‘quvchilar kosmetik muolajalarni bajarish jarayonida kosmetik vositalardan foydalanishni, kosmetik vositalarning fizik va kimyoviy xususiyatlarini bilgan holda, ularning teriga ta’sirini bilishlari zarur. Bu fan biologiya, anatomiya, sanitariya va

gigiyena, kimyo kabi fanlar bilan bog'liq. Mashg'ulotlar ijodiy yondashishni talab qiladi.

Grim san'atini ikki janrga bo'lish mumkin: grimni izlash va topish hamda uning texnik bajarilishi.

Kosmetika tarixidan. «Kosmetika» so'zi yunoncha "*kosmetice*" so'zidan olingan bo'lib, san'at, bezak ma'nolarini bildiradi.

Kosmetika faqatgina pardozi vositasi sifatida emas balki, jarrohlik va fizioterapevtik metodlarda ham qo'llaniladi.

Odamlar qadimdan qadimgi pardozi vositalaridan foydalanganligi hammamizga ma'lum. Tashqi ko'rinishga e'tibor berish hamma davr odamlariga xos odat bo'lgan. Bu badanni va yuzni toza saqlashga bo'lgan intilishning kuchayishiga olib kelgan. Bayram kunlari, diniy, to'y marosimlari va tantanalarda, harbiy yurishlarda, ibtidoiy kishilar o'zining badan va yuzlari yuvilganda tez ketadigan bo'yoqlar bilan bo'yaganlar. Buning uchun rangli tuproq, bo'r, pista, ko'mir, o'simlik va barglarning suvlaridan foydalanganlar. Hayvon yog'ini o'z tanalariga surib, tanalarini sovuq va issiqdan saqlanganlar.

Arxeologlar muz davrlariga tegishli tobutlardan dastlabki lab bo'yoqlari, ko'z va qoshlarni bo'yash uchun qalamchalar, tanaga rasm chizuvchi ignalarni topishgan.

Misr - kosmetikaning vatani, deb hisoblanadi. Bunga Nefertitining tobutdan topilgan byustini misol qilishimiz mumkin. Agar unga yaxshilab e'tibor beradigan bo'lsak, Nefertitining yuzi did bilan pardoz qilinganligini, qoshlari terilgan hamda lablarining lab bo'yog'ida bo'yalganligini ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi Yunon va Misr kosmetikasi. Qadimgi yunonlar va rimlik ayol va erkaklar o'z tanalarining chiroyli bo'lishi uchun sport bilan shug'ullanishgan.

Yunon faylasuflari insonning mard va jasurligini go'zallik, deb bilishgan. Yunonlar katta ishtiyoq bilan yuz, qo'l va bo'yiga upadan, ko'z va kiprik uchun ten hamda atirdan foydalanganlar.

Bezanish va tashqi ko‘rinishni yaxshilashga har doim katta e’tibor berishgan.

Arxeologik qazilmalar, bizgacha yetib kelgan moddiy-madaniy ashyolar, bizga qadimda yashagan odamlarning qanday ko‘rinishga ega bo‘lganligi haqida bilishga yordam beradi. Misr, Vavilon, Assuriya, Yunoniston, Rim va Hindistondan topilgan moddiy-madaniy ashyolar bundan dalolat beradi. Misr piramidalari qazilmalarida ashyolar topilgan. Yog‘, malham, bo‘yoq, atirlarga mo‘ljallangan ashyolar Misrliklar bo‘yoqlar, xushbo‘y atirlardan nafaqat tashqi ko‘rinishni, balki kasalliklarni davolash uchun ham mohirona foydalanishgan; dorivor aralashmalar yordamida terini yumshatish va zararsizlantirish uchun o‘simliklar va hayvonlar yog‘i qo‘llashgan. Ular dengiz mollyuskalaridan tayyorlanadigan turli bo‘yoqlar tayyorlash sirlarini bilishgan. Teriga bug‘doy rang beruvchi kukunni tayyorlash uslubi, ayniqsa, juda qattiq sir tutilgan. Misrlik ayollar ko‘zlarini qora kukun qoshlarini oltingugurt aralashtirilgan tuz bilan bo‘yashgan. Tanadagi kirni qo‘l, maydalangan g‘isht yoki g‘isht bilan tozalashgan. Misr piramidalaridan topilgan papiruslarda (qadimgi qog‘ozlar) kosmetika retseptlarining sirlari bayon qilingan.

Terini oziqlantirish uchun – bug‘lash va tozalash usulidan foydalanishgan, bu usul quyosh nurlaridan saqlashga yordam beradi. Bug‘lash va tozalash malhamlari zaytun, kunjut va hayvonlar yog‘idan tayyorlangan. Yuz parvarishi haqida qirolicha Kleopatra «Yuz uchun dorilar haqida» nomli kitob yozgan, «Tib qonunlari» asarining muallifi Ibn Sino ham asarida kosmetikaga alohida to‘xtalib o‘tgan. Unda 500 dan ortiq yuz va tana parvarishi to‘g‘risida retseptlar mavjud. Yevropada pardozi vositalarini aholining turli tabaqa vakillari keng qo‘llashgan. Keyinchalik kosmetika to‘plamiga qora va qizil tusli malham bo‘laklari ham kira boshladi, ular yuzdagi

husnbuzarlarni yashirish uchun surilgan, bu ham go‘zallik baxsh etgan, ham undan foydalanish an’anaga aylangan. XVIII asrda modaga amal qiluvchilar yuzni dumaloq qilish uchun po‘kakdan shariklar tayyorlab yuzga qo‘yishgan. Keyinroq Yevropaning turli davlatlarida modaning talabi bilan yuzga sursa bo‘ladigan oq va qizil bo‘yoqlar paydo bo‘ldi. Hatto yosh qizlarning tiniq yuzlarini ham bu bo‘yoqlar bilan bo‘yashgan. O‘sha davrlarda yuz go‘zalligiga erishish shunchalik qiyin bo‘lgan. Bu katta san’atni talab qilganki, hatto xonimlar buning uchun rassomlarni taklif qilishgan. Fransiyada XIII asrda xonimlarning yuz pardozi oddiy holat bo‘lgan. Ularning tashqi ko‘rinishi tannoz va nozik qo‘g‘irchoqlarni eslatgan. Epchil atirfurushlar, sartaroshlar lab bo‘yoqlarini, yuzga suradigan qizil bo‘yoqlarni, ko‘z va qosh uchun qalamlar va boshqa kometik vositalarni yaratishgan.

1 - BOB. GIGIYENIK VA PROFILAKTIK PARVARISH

1.1. YUZ TERISINING TURLARI, UNING TAVSIFI VA PARVARISHI

Tayanch iboralar: *gigiyena, demakiyaj, epilyatsiya, teri turlari tavsifi, yuz va bo'yin massaji, kosmetik niqoblar.*

Yuz terisining odam organizmida tutgan ahamiyati kattadir. U inson ichki organlarini tashqi iqlimning zararli holatlaridan saqlaydi. Yuz terisi mayin, tiniq, tarang tortilgan, elastik va chiroyli pushti rangga ega bo'lishi lozim. Muntazam va to'g'ri parvarishlash lab, yuz terisini uzoq muddat yaxshi holatda saqlashga va turli nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi.

Yuz terisini to'g'ri parvarishlash uchun, avval, uning qaysi turga xos ekanligini aniqlash lozim bo'ladi.

Terini shartli ravishda 3 ta asosiy turga bo'lish mumkin: *o'rta (normal), yog'li va quruq* teri, shuningdek, *aralash* turdagi teri ham uchraydi.

Terining qaysi turga xos ekanligi ko'plab omillar – iqlim, nasliy moyillik, jins, inson shug'ullanadigan ish faoliyatining turi va turmush tarziga bog'liq bo'ladi.

Yuz terisi turini aniqlash va mijozning yuz terisi reaksiyasi. Yuz terisini kattalashtiradigan oyna orqali aniqlash mumkin. Kattalashtiradigan oyna orqali terining mayda nuqsonlari – ochiq teshikchalar, qora va oq husnbuzarlar, yiringli yaralar va ajinlar ko'rinadi. Yuz terisining yog'iligini shimadigan yupqa lakmus qog'ozi orqali aniqlash mumkin. Lakmus qog'ozi ko'k rangdan iborat bo'lib, kislotada qizil rangga o'zgaradi, agar qog'oz ko'k rang bo'lib qolsa, bu terining sustligini bildiradi. Qog'oz pushti rangga o'zgarsa, bu terining

kislotasi normalligini bildiradi, kislotasi oshganda qog‘oz qizg‘ish rang bo‘ladi. Bunda yuz terisi mayin, sezgir, tez so‘nib borishga moyil bo‘ladi. Buning uchun yuzga bir necha daqiqaga lakmus qog‘ozi qo‘yish kerak. Burun va peshanaga alohida e‘tibor berish lozim. Lakmus qog‘ozi olingandan keyin ko‘rib chiqiladi, agar qog‘ozda yog‘liq joylar ko‘p bo‘lsa, demak, yog‘ bezlari kuchli faoliyatga ega, ozgina bo‘lsa, yuz terisi normal hisoblanadi. Qog‘ozda yog‘li joylar mutlaqo ko‘rinmasa - bu yuz terisining quruqligini bildiradi.

Yog‘li teri – bu turdagi teri o‘zidan, me‘yordan ortiq yog‘ ajratishi bilan tavsiflanadi. Bunday teri yuzasi dag‘al, yaltiroq, qalin bo‘lib, tashqi ko‘rinishi bilan limon po‘stlog‘ini eslatadi. Yog‘li teri meteorologik omillar, kosmetik vositalar, suv, sovun ta‘siriga chidamli bo‘lsa-da, infektsiyali qo‘zg‘atuvchilarga ta‘sirchan bo‘ladi. Shu sababdan, unda husnbuzarlar, yallig‘lanish jarayonlarini kuzatish mumkin. Yog‘larni kamaytirish uchun haftada bir marotaba bug‘li vannadan, tozalovchi niqoblardan foydalaniladi. Yuzni tozalovchi va yuvuvchi vositalar yordamida tozalash mumkin, bu vositalar barmoqlar uchi bilan yuzga suriladi va ko‘pirtiriladi. Shu muolajadan keyin yuz terisi teshikchalaridagi yog‘lar erib, yo‘qola boshlaydi. Yuz terisini tozalashda, tarkibida spirt mavjud bo‘lgan odekolonlar ishlatish man qilinadi, chunki ular terini kuydirib, dog‘ qoldiradi.

Quruq teri – bunday teri uchun terining nozikligi, rangining bir tekisda bo‘lib, aksariyat hollarda, yuvingandan keyin terida qizil dog‘lar hosil bo‘lishi xosdir. Quruq teri tez qizaradi, suvsiz bo‘lganligi uchun unda ajinlar osonlik bilan paydo bo‘ladi. Quruq terining meteorologik o‘zgarishlar – quyosh, shamol, sovuq, kosmetik vositalar, suv, sovun ta‘siriga sezuvchanligi yuqori bo‘ladi. Yosh o‘tishi bilan, ayniqsa, 40 yoshdan so‘ng quruq teri yanada quruqlashadi. Agar o‘z vaqtida parvarish qilinmasa, yuz sanoqsiz ajinlar bilan qoplanishi mumkin. Bunday vaziyatlarda terida mavjud bo‘lgan elementlarni saqllovchi

kremlardan foydalanish lozim bo‘ladi, bularga kosmetik sutlar, namlantiruvchi va oziqlantiruvchi kremlar kiradi. Quruq terini parvarish qilayotganda, tarkibida lanolin yoki glitserin bo‘lgan kosmetik sovunlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu turdagi terilar uchun odekolon, losyon ishlatish mumkin emas. Qish faslida bu turdagi terining quruqlashib ketishi yanada kuchayadi. Shuning uchun kun bo‘yi yog‘li krem surish tavsiya etiladi.

O‘rta (normal) teri - yosh va sog‘lom insonlarda uchraydi. Bunday teriga ega ayollarga havas qilsa arziydi. Bu turdagi teri elastik, tiniq bo‘lib, turli nuqsonlardan xoli, sog‘lom ko‘rinishga egaligi bilan ajralib turadi. Qon aylanishining yaxshiligi sababli, teri och pushti rangga ega bo‘ladi. Normal terini kuniga bir mahal, yaxshisi, kechqurun sovunlab yuvish tavsiya etiladi. Lekin bu turdagi teri ham parvarishga muhtoj bo‘ladi. Agar parvarish qilinmasa, u o‘zining dastlabki holatini yo‘qotadi va uni qayta tiklash ancha mushkul bo‘ladi. Yuzning tabiiy go‘zalligini saqlash uchun kosmetik vositalarni me‘yorida qo‘llash kerak.

Aralash teri – ba‘zan terining hamma qismlari bir xil bo‘lmaydi. Aksariyat hollarda, peshona burun va iyak qismlari yog‘li, yonoq, ko‘z atrofi, bo‘yin quruq yoki o‘rta bo‘ladi. Bunday teri aralash turga xosdir. Bu esa, o‘z navbatida, parvarishlashda murakkablik tug‘diradi. Bunday holda yuzning yog‘li qismlariga yog‘li terilar uchun, quruq qismlariga esa quruq terilar uchun mo‘ljallangan vositalardan qo‘llash kerak. Bu turdagi teri iqlim o‘zgarishlariga ta’sirchandir. Agarda teri yallig‘langan bo‘lsa, suli yormasidan tayyorlangan niqobdan foydalanish tavsiya etiladi. Bu niqob tinchlantiruvchi, yumshatuvchi va yallig‘lanishga qarshi xususiyatga egadir.

35-40 yoshda yuzda ajinlar paydo bo‘la boshlaydi va teri qurishi boshlanadi. Kuz va qishning sovuq ob-havosidan ajinlar tez paydo bo‘ladi. Bu jarayonni to‘xtatish uchun esa ertalab va kechqurun yuz terisini oziqlantiradigan krem va emulsiyalardan foydalanish lozim. Krem tarkibidagi vitaminlar ajinlar tutishini

sekinlashtiradi va oldini oladi. Yotishdan oldin ajinga qarshi krem ishlatiladi, chunki bu muolaja yuzdagi mayda teshikchalarni, ajin tushgan joylarni tekislab, taranglashtiradi. Agar ajinlar erta paydo bo'lsa, bunday holatlarda har kuni massaj qilish kerak. 1-2 oydan keyin esa har 2-3 kunda bir takrorlash zarur bo'ladi. Shuningdek, har kuni ertalab, kechasi krem surib bo'lib muskul, mushaklarni joylashishiga qarab, yuz terisini uqalab massaj qilish mumkin.

Yuz terisi qaysi turga xos ekanligidan qat'i nazar, uni parvarishlash quyidagi bosqichlarga bo'linadi: yuz terisini tozalash, nomaqbul ob-havo, turli boshqa ta'sirlardan himoya qilish va terini oziqlantirish. Shuningdek, teri parvarishida massaj, yuz gimnastikasi ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1.2. DEMAKIYAJ – TOZALASH

Tayanch iboralar: *gigiyena, demakiyaj, ten, makiyaj, ranglar gammasi, losyon.*

Yuz terisi parvarishida demakiyaj muhim ahamiyatga ega. Bunda yuzdan dekorativ kosmetikani yuvib tashlash tushuniladi. Pardozning o'zi yuz terisi uchun zararli emas, lekin terining noto'g'ri parvarish qilinishi, pardozlash vositalaridan terining turiga qaramasdan foydalanish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Makiyajni kechasiga qoldirib bo'lmaydi, bu terining yallig'lanishiga olib keladi. Shuning uchun har doim uxlashdan oldin makiyajni, yuz terisini tozalovchi maxsus suyuqlik bilan namlangan mato bilan artish zarur. Bunda yengil qo'l harakatlari bilan yuzning markazidan boshlab, barcha qismini namlangan mato bilan bir necha marta, oxirigacha, butunlay toza bo'lgunga qadar artiladi.

Yuzdagi oqartiruvchi vositaning, labdagi lab bo'yog'ining, ko'zdagi ten va kipriklardagi tushning yaxshilab tozalanishi keyingi makiyaj qilinganda yuz tiniq bo'lishi uchun muhim o'rin tutadi. Agar dastlabki makiyajni yaxshi tozalamasdan

turib, ustidan qayta makiyaj qilinsa, yuz terisining ranggi o'zgarib ketadi va makiyaj ko'ngildagidek chiqmaydi. Pardo vositalarining to'liq tozalanmaganligi ranglar gammasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tozalovchi vosita yuz terisiga surilgandan keyin, terini losyon yoki xushbo'y suyuqlik bilan namlangan paxtada yana bir marta artiladi. Keyin atir sovunsiz, iliq suvning o'ziga yuz yuviladi, chunki yuqori sifatli sovun ham yuzning terisini quritib yuborishi mumkin. Yuzni butunlay tozalab yuvib, sochiq yoki salfetka bilan artib quritish mumkin.

1.3. YUZ VA BO'YINNING GIGIYENIK MASSAJI

Tayanch iboralar: *gigiyena, massaj, akapunktura, yuz va bo'yin massaji, elastik, ekzema.*

Massaj – bu eng foydali kosmetik muolajalardan biridir. U Qadimgi Yunoniston va Rim davrlaridanoq odamlarga ma'lum bo'lgan. Hammomlarda kosmetik massaj bilan shug'ullanuvchi qullar teriga xushbo'y aralashmalar va yog'lar surishgan. Massajga sharqda qadimdan katta ahamiyat berilgan. Massajning turlari bir nechta bo'lib, xitoy akapunkturasi (ignali massaj) eng foydalisi hisoblanadi. So'nggi vaqtlarda mushaklarni mustahkamlaydigan va ajin tushishining oldini oladigan aloqasiz massaj qo'llanilmoqda. Massaj qilinayotganda, maxsus surtmalar va yog'lardan foydalanish, uqalash kuchini hamda massaj davomiyligini e'tiborga olish va tana a'zosining anatomik tuzilishini bilish zarur. Massaj yordamida teri taranglashadi va mayinlashadi. Tana a'zolari har bir qismining o'z massaj texnikasi mavjud. Yuz va bo'yin gigiyenik massajining maqsadi - yuz va bo'yin terisini taranglashtirish va elastiklik holatini kuchaytirishdir. Ma'lumki, qon aylanishi buzilsa yoki yetarli bo'lmasa, yuz terisi vaqtli qarishni boshlaydi. Tizimli massaj bu holatni sekinlashtirishga yordam beradi.

Massaj - bu har tomonga va har xil kuch ishlatadigan harakatlar birlashmasidir. Massaj qon tomirlarining kengayishiga, qon aylanishining yaxshilanishiga, shu bilan birga, moddalar almashinuvining yaxshilanishiga yordam beradi. Kosmetikada massaj turli muolajalar bilan bog'liq (parafin niqoblar, darsonval).

Massaj usullari. 5 ta asosiy massaj usullari mavjud:

1. Silash usuli faqat terida bajariladi. U qon aylanishini yaxshilaydi. Silash natijasida terining yashab bo'lgan yuqori qavati (epidermis) ko'chib tushadi, terining nafas olishi yaxshilanadi, ter va yog' bezlarining funksiyasi faollashadi, teri qon-tomirlari kengayib, kapillyarlar ochiladi.

2. Uqalash usuli ta'sirida paylarning elastikligi oshadi, qisqargan mushak pardalari cho'zilib tortiladi, to'qimalarda qon, limfa oqimi yaxshilanadi.

3. Qoqish usuli massaj qilinayotgan joyga ko'p qon kelishini va ularning oziqlanishini yaxshilaydi, mushak tolalarini ta'sirlantirib qisqarish kuchini oshiradi, yana shu xususiyati bilan markaziy nerv tizimining qo'zg'aluvchanligini oshiradi.

4. Ishqalash usuli bo'g'imlarda, paylarda, boylamlarda, asablarning chiqish joylarida va boshqa sohalarda o'tkaziladi hamda terini tezda qizdirish uchun bajariladi.

5. Tebrantirish usuli silkitib-silkitib qo'yish, titratish va kaftlar orasida mushaklarni asta ezish harakatlaridan iborat.

Massaj turlari. Massaj gigienik – kosmetik va davolovchi bo'ladi.

Gigiyenik–kosmetik massaj terini tez qaritmaslikka yordam beradi. U teridagi davolovchilik xususiyatini va elastiklik qobiliyatini oshirib beradi. Odatda, 30 yoshga yaqin teri o'zining elastiklik qobiliyatini yo'qotadi, shuning uchun shu yoshga yaqin massaj qilishni boshlash kerak. Har qanday massajni boshlashdan oldin terini ko'rikdan o'tkazish, teri holatini baholash kerak. Massajdan oldin yuzni tozalash lozim. Yuz massaji barmoq yostiqchalari yordamida bajariladi.

Massaj jarayonida oziqlantiruvchi surtma teriga yaxshi singdiriladi. Silashni peshonadan chakkagacha, burundan quloqqacha, dahan o'rtasidan quloq orqasigacha bir xil harakatlar orqali bajariladi. Massaj harakatlari ritmik bo'lib, terini qattiq tortmaslik kerak. Bu holat 3-5 marta takrorlanadi.

Davolovchi massaj ta'sirida, terida biologik aktiv moddalar hosil bo'lib, qonga tushadi, ular tomir reaksiyalarida asab impulslarini o'tkazishga va boshqa reaksiyalarda qatnashadi.

Massaj davomiyligi 15 daqiqani tashkil etib, to'liq davolanish kursi 15-20 muolajadan iborat. Massajni kun ora olish kerak, oyiga esa 3-4 marta olish mumkin. Bir yil davomida 1-3 kursdan ortiq olinishi mumkin emas.

Massaj mumkin bo'lmagan holatlar. Massaj yiringli va ochiq yaralar mavjudligida qilinmaydi. Shu bilan birga, teri shamollaganda, teri-zamburug' kasalligida, qon bosimi ko'tarilganda, ekzema kasalliklarida ham qilinmaydi.

1.4. QOSH VA KIPRIKNI BO'YASH. QOSHNI RESFEDER (PINSET) BILAN EPILYATSIYALASH


Tayanch iboralar: *gigiyena, massaj, xitoy akapunkturasi, yuz va bo'yin massaji, elastiklik, ekzema.*

Qosh va kipriklarni eng foydali soch desa ham bo'ladi. Ularning nima uchun kerakligi ham aniq. Kipriklar ko'zni peshonadan oqqan terdan va changlardan himoya qiladi. Shu bilan birga, qosh va kiprik odamning qiyofasiga o'zgacha chiroy beradi. Qosh va kiprikni - soqol-soch deb atasak bo'ladi. Ularning umri qisqa (taxminan 3 oy) va boshdagi sochdan 2 barobar sekin o'sadi. Modaga qarab qoshning shakli o'zgaradi, ba'zida modaga qalin bo'yalgan qoshlar kiradi, ba'zida esa, ingichka qoshlar kiradi. Qoshlar yuzga o'ziga xos chiroy beradi. Ularni parvarish qilish kerak. Agarda siz ularning shaklini o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, qoshlaringiz shakli o'zining oldingi ko'rinishidan qattiq farq qilmasligi kerak. Qosh epilyatsiya

(yulish) qilinganda, sochning ba'zi bir qismi tiklanmaydi. Qosh ko'zning ichki burchagi nuqtasidan boshlanishi kerak va eng egiluvchan qismi ko'z qorachigi to'g'ri turganda, nuqtasi tepasida bo'lishi kerak. Qosh to'g'ri egilib, uning oxirgi qismi bosh qismidan past bo'lmashligi kerak.

Burun uchidan ko'z burchagiga chiziq chizilganda, chiziq qoshning tugagan joyiga to'g'ri kelishi kerak. Qoshni barmoq orqali yoki yumshoq cho'tka bilan tarash lozim bo'ladi. Oldin pastdan tepaga, keyin esa gorizontal chiziq bo'yicha taraladi.

Pinset orqali qoshga shakl berish. Qoshni pintset bilan olib tashlash, epilyatsiya deb ataladi. Pintset orqali qoshni har xil shaklga keltirish mumkin: ingichka, to'g'ri yoki yoysimon. Agar qoshga yangicha shakl bermoqchi bo'lsangiz, zamonaviy moda yo'nalishi bilan birga, yuzingiz tuzilishi va o'zingizning individual holatingizni hisobga olishingiz kerak bo'ladi. O'zingiz istagan shaklni tanlaganingizdan keyin, qosh o'sgan joyni talk yoki upa bilan surib, alohida o'sgan sochlarni olib tashlash muolajasini boshlasangiz ham bo'ladi. Chap qo'l barmoqlari bilan terini tortib, so'ng pinset bilan sochni ildizidan siqib olinadi va soch o'sish yo'nalishiga qarab yulinadi. Pinset qoshga past tomonidan olib kelinadi. Agar qosh o'sgan joyda yiringli yarachalar bor bo'lsa, bunday vaziyatlarda bu muolajani o'tkazish mumkin emas.



Qoshlarni bo'yash. Qoshlarni bo'yashdan oldin, uni yog'sizlantirilib olish zarur bo'ladi. Bo'yoqni qoshga, cho'tka yordamida, ildizidan uchiga qarab sekin-astalik bilan suriladi. Bo'yoq qoshlarda 10-15 daqiqa ushlab turiladi. Shundan so'ng, quruq paxta yordamida bo'yoq qoshdan olib tashlanadi. Keyin esa yuvuvchi suyuqlik bilan namlangan paxta yordamida artiladi. Iliq suvda teri ehtiyotkorlik bilan yuviladi. Muolaja tugagach, 2% li borli kislota bilan namlangan paxta tamponi yordamida artiladi. Muolajani ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish zarurdir.

Kipriklarni tush yordamida bo'yash. Kipriklarni uzaytirish hamda ularni qalin ko'rsatish maqsadida, maxsus komponentlarga ega bo'lgan (vosk, sovun, qorakuya, yog'lar va bo'yoq moddalari) tushlardan foydalaniladi. Tushlar turlicha ranglarda bo'ladi: qora, jigarrang, ko'k. Kipriklarga tush surayotganda, ko'zga kirib ketmasligiga ahamiyat berish kerak. Odatda, tushni ko'z makiyajining oxirida surish tavsiya etiladi.

Bo'lim yuzasidan nazorat savollari

- 1. Jozibali pardozlash va grim fanining maqsadi va vazifasi nima?*
- 2. Kosmetikaning rivojlanish tarixi qanday bo'lgan?*
- 3. Terining qanday turlari mavjud?*
- 4. Teri tozalash qoidalarini bilasizmi?*
- 5. Massaj nima?*
- 6. Massajning asosiy usullari nechta?*
- 7. Massaj qo'llash mumkin bo'lgan holatlar nimalardan iborat?*
- 8. Massaj mumkin bo'lmagan holatlarni bilasizmi?*

2-BOB. SAHNAVIY GRIM ASOSLARI

2.1. ANATOMIK GRIM

Tayanch iboralar: anotomik grim, yuz shakllari, yoshga oid grim, nusxa olish, haykaltaroshlik - hajmiylik grimi.

Grim tushunchasi (fransuzcha “grime”) ikki xil ma’noni anglatadi. Grim bu aktyorning tashqi qiyofasini maxsus bo‘yoqlar (grim), parik, har xil yopishtirmalar orqali o‘zgartiradigan san’at. Ikkinchi ma’nosi esa bu grim bo‘yoqlar va anjomlaridir.

Grimning umumiy qoidalari. Grimlashni boshlashdan oldin ko‘z, qo‘l va yuz terisini sinchiklab ko‘rib chiqib, ularda hech qanday shikastlangan joy yo‘qligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Yuqumli teri kasalliklariga duch kelmaslik uchun grimni boshlashdan oldin, asboblarni yaxshilab dezinfeksiya qilish lozim. Uni dezinfeksiya qilishning ikki xil usuli mavjud: fizik (spirtni olov ustida qizdirish yoki qaynatish) va kimyoviy (80% li etil spirti yoki odekolon, 10% li kaliy permanganat bilan ishlov berish).

Grimni boshlashdan oldin, xonaning tozaligini ko‘zdan kechirish lozim. Chiroqni boshga nisbatan balandroq o‘rnatish kerak. Grimlash uchun asboblarni cho‘tka va qo‘llarni odekolon bilan artish, yuz terisiga esa yupqa qilib vazelin surish kerak. Upa uchun paxta tamponlarini har doim almashtirish lozim, chunki ular tez kir bo‘lib, har xil mikroblar tarqalishiga sababchi bo‘ladi. Grimni, odatda, plastmassa, suyak yoki yog‘ochsimon pichoq yordamida yuzdan sidirib olinadi. Grimning ko‘p qat-

lamli joyi alignin bilan yumshatiladi. Bu muolaja yuz terisi grim va vazelindan tozalanmaguncha bajariladi. Grimni artib tashlash uchun qo‘llanilayotgan mato yumshoq va toza bo‘lishi kerak. Bundan so‘ng yuz terisi sochiq yoki paxta bilan artiladi. Grimdan tozalangan yuz terisi yallig‘lanishi mumkin, shuning uchun yuzni iliq suvda yuvib olish lozim. Agar iliq suv bo‘lmasa, yuzga upa suriladi, bunda yuz terisi yaxshilanadi.

Grim hozirda makijaj, deb ham ataladi. Grim makijaj ustida ishlaganda, yuz tuzilishining turli qismlari xususiyatlarini bilish katta ahamiyatga ega. Bularni faqat chuqur o‘rganganda yuqori malakali makijajni bajarish mumkin. Yuz shakli va yuz turi tushunchalari bir-biridan farqlanadi.

Grim ishlarini amalga oshirish uchun grim bo‘yoqlari, grimda ishlatiladigan asbob-uskunalar hamda ish joyi zarur bo‘ladi. Grim bilan ishlash uchun maxsus 1-, 2-, 3-raqamli cho‘tkalar kerak bo‘ladi.

Grim san’atini yaxshi egallash uchun kalla bosh suyagining anatomik tuzilishini yaxshi bilish zarur. Buning barchasi grim bilan ishlayotganda keng qo‘l keladi. Anatomik tuzilishiga ko‘ra kalla bosh suyagi ikki qismga bo‘linadi – kallaning miya bo‘limi va kallaning yuz bo‘limi.. Kalla bosh suyagining miya va yuz qismlarini, bir-biriga bog‘langan 23 ta suyaklar birlashtirib turadi. Yuz qismining hajmi jihatidan uncha katta bo‘lmagan 14 ta suyaklar birlashtirib turadi. Yuz shakli va aylanaligini esa kattaroq suyaklar beradi: yuqorigi va pastki jag‘ suyaklar, burun suyagi, yonoq suyagi va chakka suyagi.

Boshning yuz qismi suyaklari bir-biriga tep-tekis chekkalari bilan tegib birlashadi. Ayrim choklar maxsus nom bilan yoki birlashadigan ikkala suyak nomlari bilan ataladi.

2.2. YUZ QISMLARINING GRIMI

Tayanch iboralar: *grim, yuz shakllari, asosiy tus, nusxa olish, rassomlik usuli, haykaltaroshlik-hajmiylik usuli.*

Grim orqali peshana, qosh, koʻz, burun, lablar, yonoqlarning oʻzgarishini koʻrib chiqamiz.

Peshana. Peshananing shakli uning suyaklariga bogʻliq boʻladi. Peshana katta, kichik, keng, ensiz, boʻrtib chiqqan, silliq chuqurchali boʻlishi mumkin. Grimlash uchun boʻyoqlar orqali peshananing shaklini oʻzgartirish mumkin.

Peshanani boʻrtib chiqarish uchun asosiy (№ 1 + oq) tusdan ochroq boʻyaladi. Peshanani kichkina koʻrsatish uchun asosiy tusdan toʻqroq rang bilan boʻyaladi. Chakkalarni jigarrang bilan boʻyaganda peshanani kichiklashtirish mumkin. Shu bilan birga, peshananing kattaligi qosh tuzilishiga bogʻliq boʻladi. Tepaga koʻtarilgan qoshlar peshanani ensiz qilib koʻrsatadi, kalta och rangli qoshlar peshanani katta qilib koʻrsatadi.

Qoshlar yuz koʻrinishida katta ahamiyatga ega. Ular koʻzlar chiroyini, jozibadorligini koʻrsatib beradilar yoki aksincha, kamchiliklarini bildirib qoʻyadi. Agarda grimda qoshlar notoʻgʻri, qoʻpol chizilsa, bu holda hamma qilingan ishlar behudaga ketadi. Shuning uchun, avvalo, qoshlar tuzilishini, chiziqlarining shaklini va xarakterini bilib olish zarur. Qosh tuzilishi quyidagi boʻlimlarga boʻlinadi: bosh qismi, qalin joyi, qoshlarning oʻrta qismi, eng ingichka qismi va tashqi qismi. Qoshlar oʻzining qalinligiga qarab - keng, uzun, ingichka va shakli boʻyicha - toʻgʻri, yoysimon, dumaloq, uycha shaklida boʻladi. Shu bilan birga, qoshlar bir tekisda, boʻlingan, uzilgan ham boʻladi.

Makiyaj va grimda qoshlar juda katta ahamiyatga ega, ular yordamida odamning feʼl-atvori kuchli, yengiltak, quvnoq, gʻamginligini ifodalash mumkin. Qalin qoshlar shaklini rang bilan pudrani aralashtirib oʻzgartirish mumkin. Hosil boʻlgan

aralashma barmoq yordamida, qosh o'sishiga qarshi tomonga bo'yaladi. Qoshni berkitish uchun sovun bo'lakhasi ishlatiladi. Uning uchun sovunning uchli tomoni ho'llanadi va qoshlarga suriladi. Qosh tuklari bir-biriga yopishib ko'rinmaydi. Bundan keyin yuzga umumiy rang surilib, qoshga kerakli shakl berilib, grim uchun bo'yoqlar orqali cho'tka bilan chiziladi.

Milliy usulda grim bajarilayotganda, qoshlarga qora bo'yoq ishlatiladi, qolgan hollarda qora bo'yoqni jigarrang va banan (to'q qizil) ranggiga qo'shib ishlatiladi. Aslida qoshlar har xil kenglikda bo'ladi, shuning uchun ularga kerakli shakl berishda, cho'tka yoki maxsus qalam yordamida ustidan chizsa bo'ladi. Shu bilan birga har xil yasamalar ham ishlatish mumkin.

Ko'zlar. Ko'z chuqurchasining katta-kichikligiga qarab, ko'zlar bodomsimon qisq (mangollar, yaponlarga mansub) dumaloq, katta va kichik bo'ladi. Shu bilan birga, ko'zlar normal chuqur yoki bo'rtib chiqqan, bir-biridan uzoq, bir-biriga yaqin joylashgan bo'ladi.

Ko'z shaklini rassomchilik san'ati yoki haykaltaroshlik usullari (yasama, yopishtirma) orqali o'zgartirish mumkin. Grim yordamida ko'z shaklini dumaloqroq, cho'ziqroq, kichikroq qilish mumkin. Ko'zni bo'yash uchun har xil rangdagi bo'yoqlardan foydalaniladi, shu bilan birga, teri, soch va ko'zlarning rangini hisobga olish kerak. Bug'doy rangli, sochi va ko'z qorachig'i qora odamlarga, qora va jigarrang aralashtirilib ishlatiladi.

Sochi va tanasi och, ko'zi havorang, kulrang bo'lsa jigarrangning o'zini yoki to'q qizil (banan) rangli bo'yoqni ishlatib bo'ladi. Ko'zni grimlash uchun pardoz ashyolari – tush, ten, qalamlar ishlatiladi. Ko'zlarga shakl berishning bir necha turi mavjud.

Ko'z shaklini kattalashtirish uchun umumiy rang berilgandan keyin ko'z qovog'ini tepa chizig'iga to'q chiziq, pastki kipriklarga esa och chiziq chiziladi.

Baʼzan esa koʻz shaklini kichiklashtirish kerak boʻladi. Bu hollarda koʻz qovoqlarining tepa va pastki qismlari oʻrtasidan kerakli shakl beriladi. Bu chiziqlar dumaloq yoysimon va toʻgʻri chiziq boʻlishi kerak emas.

Koʻz shaklini kipriklar orqali ham oʻzgartirish mumkin. Buning uchun har xil turdagi yasama kipriklardan foydalaniladi.



Rasm. Koʻz shaklining makiyaj qilish chizmasi:

1 - Koʻzning ichki burchagi qismini yanada och rangda makiyaj qilish, 2 - qoshning pastgi qismini ochroq rangda makiyaj qilish, 3 - qovoqning tepa qismini och rangda makiyaj qilish, 4 - kipriklarning pastki qismi toʻq rangda makiyaj qilish

Burun. Yuzning asosiy qismini deyarli burun egallaydi. Burun katta, uzun va kichik bo'lishi mumkin. Chetdan qaraganda, burun to'liqinsimon, to'g'ri, qirg'iy va puchuq bo'ladi. Grim jarayonida burun shaklini rassomchilik san'ati va haykaltaroshlik usullari yordamida o'zgartiriladi. Bo'yoqlar orqali burun shaklini to'g'rilash mumkin, lekin bu murakkabroq. Shuning uchun haykaltaroshlik usullaridan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda har xil vositalar (paxta, paralon, plastik qismlar) dan tayyorlangan yasamalardan foydalaniladi. Yasamalar yuzni tanib bo'lmas darajada o'zgartiradi. Yasamalarni yuzga yog' yoki vazelin surmasdan oldin tayyorlash kerak. Burunni grimlaganda, burun kovagini ham unutmaslik zarur. Oddiy grimda burun kovagiga umumiy rang beriladi, rummyana suriladi va ingichka chiziq bilan shakli chiziladi. Bunda jigarrang yoki banan rangli bo'yoqlar ishlatiladi.



Rasm. Burun tavsifi chizmasi


Lablar. Lablar og'izning aylanma mushaklaridan paydo bo'lib, ularning ichki qismi shilliq pardasidan, tashqi qismi esa

shilliq va terisidagi yog‘ qatlamidan iborat. Shakli bo‘yicha lablar qalin, o‘rtacha (normal) va ingichka bo‘ladi. Shu bilan birga, lablar shishgan, to‘la, “yurakcha”, “bantik” shakllarida ham bo‘lishlari mumkin. Ko‘pincha, yuz ifodasi lablar shakliga bog‘liqdir. Lablar shaklini mushaklar belgilaydi. Grimlash orqali lablarning faqat shaklini emas, balki ranggini ham o‘zgartirish mumkin. Ko‘pincha haykaltaroshlik usuli ishlatiladi. Lablarni grim bo‘yoqlari bilan har xil rangdagi pushti och va to‘q qizil lab bo‘yoqlari orqali bo‘yaladi. **Og‘iz** deganda faqat lablar emas, burunlab ariqchasi, og‘iz burchaklari, iyak ariqchasi ham hisoblanadi. Bichimiga qarab og‘iz katta va kichik, burchaklari esa ko‘tarilgan yoki pastga tushirilgan bo‘lishi mumkin.

To‘rburchak yuzning (pastki jag‘iga) to‘q krem pudra yoki suyuq pudraning pastki qismiga suriladi; ko‘zlar tagiga, lab va ensa tomoniga esa ozgina rumyana suriladi. Qoshlar egilgan chiziq bo‘lib tepaga ko‘tariladi. Lablar shakli yumaloq chiziqlar bilan qayriladi. Sochlar yuqoriga qarab taraladi va peshanaga tushib turishi uchun ozgina kokil qoldiriladi, sochlar quloqlarni yopib turadi.

Dumaloq yuzli yonoqlarga, peshana, chakka, ensa tomonga va pastki jag‘ tomonga to‘qroq krem pudra yoki to‘q suyuq pudra suriladi, shunda yuz cho‘zinchoq bo‘lib ko‘rinadi. Qoshlar cho‘zinchoq, ozgina qayrilgan bo‘ladi. Kipriklar va ko‘z qovog‘idagi chiziqlar chakka tomon bo‘yaladi. Sochlar peshanadan balandroq ko‘tariladi.

Uchburchak yuzga to‘q krem pudra va to‘q suyuq pudra suriladi, yonoqlarga chakka tomonga qarab ozgina rumyana suriladi. Qoshlarning shakli baland bo‘ladi. Ko‘zlar bo‘yaladi, lekin chizig‘i uzun bo‘lmaydi. Lablar do‘mboq emas, cho‘ziqroq qilib bo‘yaladi. Pastki lablarga alohida e‘tibor beriladi. Soch turmagi oldinga chiqqan chyoilka yonoqlarga tushib turadi va pastki jag‘ tomonga qarab taraladi.



Rasm. Lab tavsifi chizmasi

To‘g‘ri to‘rtburchakli yuzga to‘q krem pudra, yonoqlar o‘rtasiga suriladi. Qoshlar ozgina qayrilgan, ko‘zlar qalin, lablar dumaloq qilib bo‘yalgan bo‘ladi.

Oval shaklli yuzga och sarg‘ish krem pudra yupqa yoki suyuq pudra tekis qilib suriladi. Yonoqlarga, chakka tomonga qarab bir oz to‘qroq rangli rumyana suriladi. Qoshlar qayirilgan bo‘ladi, kipriklar va ko‘z qovog‘ining chakka tomonlari qalinroq bo‘yaladi. Lablar o‘z shakli bo‘yicha bo‘yaladi.

2.3.TO‘LA VA OZG‘IN YUZNING GRIMI

Tayanch iboralar: *grim, yuz shakllari, asosiy tus, nusxa olish, rassomlik usuli, haykaltaroshlik-hajmiylik usuli.*

To‘la yuzning grimi. To‘la yuzni grimlashdan oldin bir necha holatlarni hisobga olib, kichik savolnoma tuzib olish

lozim; sahnaviy qahramonning toʻlaligi nimaga asoslangan, salomatligi, yaxshi ovqatlanishi, uyqusi, mehribonligi, quvnoq, kasalligi, ichkilikka munosabati, jamiyatning qaysi ijtimoiy tabaqasiga mansubligi, yoshi nechada, nima bilan shugʻullanishi aniqlanadi, Faqat shundan keyingina, grimlashni boshlash mumkin. Grimlash uchun asos qilib, “quvnoq yuz” chizmalarini va shar shaklini olish mumkin. Shar shakliga binoan yuzning hamma qirrali joylarini har xil yasamalar yordamida tekislash lozim. Qoshlar ochroq rangga boʻyaladi. Koʻzlar dumaloq qilib grimlanadi. Toʻq rangli, qora, kulrang, koʻk boʻyoqlar ishlatilmaydi. Bu grimda asosiy vazifa yonoqlar va ularning shakli bajaradi. Burun va lab burushgan joydan boshlab yarim doira shaklida chiziq tortiladi. Chiziqning oʻzi toʻq boʻlib (bakan rangli boʻyoqqa jigarrang qoʻshiladi, keyin och qizil rangga boʻyaladi, oʻrtasi och rang boʻladi. Koʻpincha, toʻla yuzli odamlarda baqbaqa paydo boʻladi. Uni yuzi unchalik ozgʻin boʻlmagan odamda koʻrsatish mumkin. Buning uchun engakning pastki qismiga toʻq chiziq chizilib, hosil boʻlgan joyni och rangga boʻyash orqali ajratish mumkin. Och rang berish uchun № 1, 2 + oq va oxra ranglari qoʻshiladi. Lablar shaklini ham kattalashtirish mumkin. Oxirida tayyor boʻlgan grimga upa suriladi va zarur boʻlsa, parik kiydiriladi.

Ozgʻin yuzning grimi. Ishni boshlashdan oldin asosiy maʼlumotlar bilan tanishib, kichik anketa (savolnoma) tuzish lozim. Unda yoshi, kasbi va ijtimoiy kelib chiqishidan tashqari, odamning sogʻligi darajasi aks ettirilishi lozim. Nima sababdan ozgʻin boʻlganligining (kasallik, qarilik yoki boshqa) sabablarini aniqlab olish lozim.

Bu grimda “Gʻamgin yuz” va “Bosh suyagi grimi” chizmalari asos qilib olinadi. Umumiy rang och boʻlib, havorang va kulrang ranglari qoʻshiladi. Umumiy rang berilgandan keyin, jigarrang tus bilan kontur qilib chuqurchalar chiziladi, keyin ular tuslanadi, bunda toʻq rang koʻp ishlatilishi kerak emas, aks holda,

chuqurchalar katta bo‘lib ko‘rinadi. Bu ishni yaxshi bajarish uchun yuz bosh suyagining anatomik tuzilishini yaxshi bilish kerak. Ko‘zning pastki qovoqlariga va yonoqlarga ko‘proq rang beriladi. Peshona va burun yoni ajinlariga jigarrang va bakan rangli tusda kipriklar tagi esa ko‘k va qora qo‘shilgan rangda chiziladi. Burun va engakga qirrali shakl berish uchun jigarrang yoki kulrang bilan tuslanadi. Lablar shakli katta bo‘lmasligi uchun ular qip-qizil rangga bo‘yalmasligi kerak. Yuz terisi och pudra bilan bezaladi.



Rasm. To‘la yuzning grimi.



Rasm. Ozg‘in yuzning grimi.

2.4. YOSH YUZNING GRIMI

Tayanch iboralar: *grim, taranglik, ajinlar, yuz shakllari, rangli tuslar, nusxa olish, rassomlik usuli, haykaltaroshlik-hajmiylik usuli.*

Yosh sog‘lom yuz terisi o‘zining silliqligi, tarangligi va ajinlar yo‘qligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, yosh

yuzning grimi bir qator muammolarga duchor bo‘ladi. Buni kam miqdordagi bo‘yoqlar orqali yuksak natijaga erishish mumkin, deb tushunsa ham bo‘ladi. Grim bo‘yicha ishda badiiy did, mahorat va ozodalikka rioya qilinishi lozim.

Grimlash uchun och mayin tus tanlab olish lozim. Umumiy № 1 + № 2 tuslarni ishlatish mumkin. Grimlangan bolaning jinsi va millatiga qarab, boshqa rangdagi bo‘yoqlarni ham qo‘shsa bo‘ladi. Qizlar uchun umumiy rangga oq rang hamda to‘q qizil rang, o‘g‘il bolalar uchun esa umumiy rangga jigarrang yoki oxra qo‘shiladi. Grim yuzni yoshartirishi mumkin, mus yordamida burun tortilishi yoki bo‘yoqlar va gumbazdan tayyorlangan yopishma yordamida burunni puchuq qilsa bo‘ladi.

Qoshlarni tuslash orqali kichik yoki kalta qilish mumkin. Yosh bolalarning ko‘zlari juda keng joylashgan va yuzni yoshartirish uchun qoshning o‘rtasiga och rang beriladi. Lablar kattalarnikidek juda ham bilintirib chizilmaydi; hajmi bo‘yicha ular kichkina va ranggi yarqirab turgan bo‘ladi. Rumyanalar surilishiga katta ahamiyat berish kerak. Ular yuz tuzilishiga qarab yonoqlar chuqurchasiga, burun chetidan engak tomonga suriladi.

Qizlar uchun yengil chyolka yoki sochi orqaga bitta yoki ikkita qilinib bog‘lanadi, soch turmagi har xil to‘g‘nog‘ich zakolka va lentalar bilan bezaladi.

O‘g‘il bolalar soch turmagida peshanadagi sochlarni ko‘tarib yuz qismi oldiga – chyolka qilinadi. Agarda sochning rangi och yoki qo‘ng‘ir rangda bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki qora rang odamning yoshini katta qilib ko‘rsatadi.

Grimlashdan oldin yuzdagi changlarni va yog‘larni tozalab olish lozim, so‘ng vazilin yoki yog‘li krem (praymer) suriladi. Bu muolaja yuz terisini silliq qilib, yuzning umumiy rang bilan qoplanishiga qulay sharoit yaratib beradi. Umumiy rang odamning individual xususiyatlariga, kasbiga qarab tanlab olinadi. Ochiq havoda ishlovchi ayollarning yuzlari

xonalarda ishlovchi ayollar yuzlaridan nisbatan farq qiladi. Grim qilinayotganda, bo'yoqlar yordamida yuzda uchraydigan ba'zi kamchiliklarni: bo'rtib chiqqan yonoqlarni, yonoqlar yoki burunning kattaligini, ko'zlar va lablarning kichikligini hamda qoshlarning kaltaligini yo'qotish mumkin.



Rasm. Yosh ayol yuzining grimi

Yosh ayollar yuzining grimi. Ayollar yuz terisi, qoida bo'yicha, mayin va och rangda bo'ladi. Umumiy rangning sog'lom ko'rinishiga erishish uchun № 1 va 2 ranglarining aralashmasidan foydalanish mumkin. Rумыana yuzning tuzilishiga qarab (dumaloq, to'rtburchak, ovalsimon va h.z.) suriladi. U yuzga cho'tka yoki ko'rsatkich barmoq yordamida

tekis va yupqa qilib suriladi. Rummyana yonoqlarga, burun yonlariga va iyakka suriladi. Yuzni butunlay rumyanalar bilan qoplash kerak emas. Albatta, ularni surish qoidasiga rioya qilish kerak. Yuz qismi bo'yindan ajralib turmasligi uchun quloq uchini hamda bo'yin qismini rumyana bilan bo'yash talab etiladi. So'ngra, yuz qismlari - peshana, qosh, ko'z, burun, lab, yonoqlar va iyak grimi ustida ish olib boriladi. Grimda soch turmagiga katta ahamiyat beriladi, chunki u orqali yuz tuzilishini, shaklini o'zgartirish mumkin. Grim oxirida yuz upa bilan bezaladi.

Yosh erkaklar yuzining grimi. Bu jarayon ham xuddi yosh ayollar yuzining grimiga o'xshab ketadi. Umumiy rang tanlanganda terining tabiiy rangini hisobga olish kerak. Erkaklar terisi ayollar terisiga nisbatan to'qroq bo'ladi. Umumiy rang yuzga bir tekisda yupqa qilib suriladi. Agar erkak o'ynayotgan roli mo'ylovli, qalin qoshli, soqolli va bakenbardli bo'lsa, ular yopishtirilishi kerak bo'lgan joyga umumiy rang surilmaydi. Shuni nazarda tutish lozimki, yuz qismlari – lab, qosh, ko'zga qizartiruvchi bo'yoq surayotganda, hammasi hayotdagiday tabiiy bo'lishi, sahnadagi shaxsning xarakterini, yashash davrini e'tiborga olish kerak bo'ladi. Ma'lumki, o'tgan asrlarda yosh va qariya aristokratlar modaga qarab lablari va yuzlarini ko'p bo'yaganlar. Yosh aktyorlar o'zining yoshligiga, go'zalligiga ishongan holda, grimga yetarli darajada e'tibor berishmaydilar. Ammo shuni esdan chiqarmaslik kerakki, grimsiz yuz chiroqlar nuri ta'sirida xira ko'rinadi.

2.5. HAYKALTAROSH - HAJMIYLIK GRIMYORI

Tayanch iboralar. *grim, taranglik, ajinlar, yuz shakllari, rangli tuslar, nusxa olish, rassomlik usuli, haykaltaroshlik-hajmiylik usuli.*

Bu grimda bo'yoqlardan tashqari har xil yasamalar, applikatsiyalar, postij mahsulotlari ishlatiladi. Haykaltaroshlik haj-

miylik grimida, yuzni tanib bo'lmaz darajagacha o'zgartirish mumkin. Ayniqsa, bu ertak qahramonlarini, sirk tomoshasi qatnashchilarini grimlaganda, yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda har xil xom-ashyolar: paxta, papye-mashe, charm, plastik vositalar va postij mahsulotlari ishlatiladi.

Grim diqqatni bir joyga to'plashni va saramjon-sarishtalikka rioya qilishni talab qiladi, aks holda, grim muvaffaqiyatsiz chiqishi mumkin. Grim jarayonida quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish zarur: ish joyini tayyorlash, yuzni artib tozalash, umumiy rang va rумыana surish, qosh, ko'z, burun va lablarni bo'yash.

Erkaklar uchun grim qilinayotganda mo'ylov, soqol, bakenbardlar ishlatilsa, ular yopishtiriladigan joylarga vazelin yoki umumiy rang surilmaydi. Ular, albatta, grimlash tugagandan keyin yopishtiriladi. Gummoz, paxta, paralon va plastik vositalardan tayyorlangan barcha yopishtirmalar quruq artilgan yuz terisiga grimlashdan oldin yopishtiriladi. Bu sochlarga grim va upa tegib ketmasligi hamda grimning o'z shaklini yo'qotmasligi uchun qilinadi. Ayrim erkaklarga pariklar grimlashdan oldin kiydiriladi. Bu grim yasama peshonaning tabiiy chiqishi uchun qilinadi.

Ayollarga esa parik grim tugatilgandan so'ng kiydiriladi. Bu soch turmagining buzilib ketmasligi uchun qilinadi.

Shu qatori yarim pariklar va ulamalarni ham qo'llash mumkin. Tabiiy sochlardan qilingan soch turmaklari ikki bosqichda bajariladi: grimgacha ular shpilkalar yordamida, shakl berish maqsadida o'rab qadaladi. Grim tugagach esa soch shpilkalardan xoli bo'ladi va soch turmagi bajariladi. Agarda soch turmagi qalin sochlarni talab qilsa, bunday vaziyatlarda ulama vositalaridan: shinyonlar, soch o'ramlari va lokonlardan foydalaniladi.

Grim ishlari ish xalati yoki penyuarlarda amalga oshiriladi. Teatr liboslari grimlashdan va soch turmaklashdan so'ng

kiyiladi, chunki ular tarixiy liboslar bo‘lib grim qilinayotganda xalaqit beradi. Teatr liboslari oyoq tomondan kiyiladi, agar bunday imkoniyat bo‘lmasa liboslar bosh tomondan kiyiladi va bu vaqtda yuz qismi yupqa kapron bo‘lagi bilan to‘sib turiladi va libos yoqasi ehtiyotkorlik bilan bosh qismidan o‘tkaziladi. Spektakl tugagach liboslar darhol yechiladi. Keyin esa parik, turli postij vositalari olinadi va yuzdagi grim krem vositasida olib tashlanadi.

2.6. YOSHGA OID GRIM

Tayanch iboralar: grim, taranglik, ajinlar, yuz shakllari, rangli tuslar, nusxa olish, rassomlik usuli, haykaltaroshlik-hajmiylik usuli.

Katta yoshli ayol yuzining grimi. Katta yoshli ayol yuzini grimlash uchun aniq bir bilim va tajribaga ega bo‘lish kerak. Bunday yuzni grimlashdan oldin, yuzning anatomik tuzilishini, uning xususiyatlarini yaxshilab o‘rganib chiqish lozim.

Umumiy rangning grimga ta’siri katta va uni yoshga qarab bajariladi. Umumiy rang - och rangga oxra va kulrang bo‘yoqlar qo‘shish orqali tayyorlanadi. Bu grim xuddi ozg‘in yuz grimidagidek “Bosh suyagi” chizmasi bo‘yicha bajariladi. Ko‘z tagiga to‘q rang suriladi, qoshlarga oqargan rang berish maqsadida oq rang suriladi. Rummyana katta-katta teshikli gubka yordamida yonoqlarga alohida chiziq qilib suriladi. Ingichka uchli cho‘tka yordamida peshonadagi va ko‘z ostidagi ajinlar qalinroq chiziladi. Ko‘z chuqurchalari jigarrang bo‘yoq bilan tuslanadi, ko‘zlar tagi kulrang va jigarrang bo‘lib tuslanadi. Ko‘z chuqurchasining pastki qismi va burun, labdagi chuqurchasi ko‘proq chiziladi. Pastki jag‘da yuz muskullari bo‘shashib ketganligi sababli, yuz terisida osilgan qopchalar paydo bo‘lgan joylar chiziladi. Burundan tepa labgacha bo‘lgan masofa to‘q rangda tuslanadi. Bu og‘izda tish yo‘qligini bildiradi. Sochlar pudra orqali oqartiriladi yoki oq parik kiyiladi.

Umuman bu grim koʻzga tashlanmaydigan va ishonchli boʻlishi kerak.

Katta yoshli erkak yuzining grim. Bu grim juda murakkab boʻlib, grimda boʻladigan barcha jarayonlarni birlashtiradi. Bu grimni yuksak darajada bajarish uchun belgilangan mahoratlardan tashqari, kuzatuvchanlik mahoratiga ham ega boʻlish lozim. Buning uchun qariyalar aks ettirilgan fotosuratlar, rassomlar portretlarini yaxshilab koʻrib chiqib, oʻrganish lozim va grimlashdan oldin qarilikning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlab olish zarur.

Yillar oʻtgani sayin odamning yuz terisi, uning rangi, sochi va koʻzlari oʻz shaklini yoʻqota boshlaydi. Butun yuz terisi ajinlar bilan qoplanadi, Biz hayotga qiziqishini yoʻqotmagan, koʻrinishi tetik, ruhi baland qariyalarni ham uchratamiz.



Rasm. Katta yoshli erkak yuzining grim

Ammo yillar oʻz izini qoldirmay qoʻymaydi.

Keling, bunday grim ketma-ketligini koʻrib chiqaylik. Grimlash umumiy rang berishdan boshlanadi. Bir necha rang №

2 + 3, shu bilan birga, oxra va oq ranglarni qo‘shib aralashtirsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu grimda yuzning “bosh suyagi” grimi chizmasi asos qilib olinadi. Rumyanalarning teshigi katta gupka yordamida, och jigarrangga bakan rangi qo‘shib suriladi. Ko‘z chuqurchalari bir tekisda qoraytirilmaydi, ko‘zning ichki burchagiga, tashqi burchagiga qaraganda, ko‘proq rang beriladi. Yonoqlar tagidagi chuqurchalar va yuqori lab ustki qismi qoraytiriladi. Bu grimda ajinlar katta ahamiyatga ega: peshanadagi - gorizontal, qoshlar o‘rtasidagi, burun, labdagi vertikal, ularning tagiga chizib qo‘yiladi. Ko‘z tagidagi qopchalar kontur orqali belgilanadi.

Lablar och rangda tuslanadi, uning konturi esa jigarrangga, bakan va oq rang qo‘shilgan bo‘lib chiziladi. Och rangli pudra ishlatiladi. Keksa yuz grimida soqol, mo‘ylov, parik, bakenbardlar ishlatiladi. Ular obrazga tez kirishib ketishga yordam beradi. Ular yuz terisiga upa surilgandan so‘ng yopishtiriladi. Oldin soqol, keyin mo‘ylov yopishtiriladi. Spektakl tugagach esa, oldin mo‘ylov, keyin soqol va parik olinadi.


2.7. XARAKTERGA OID GRIM

Tayanch iboralar: *grim, sahnaviy obraz, xarakter, mimika, opera, sirk, balet, estrada, spektakl, bufon.*

Sahnaviy obraz yaratishda grim juda katta ahamiyatga ega. U asar qahramonining xarakterini, ichki va tashqi dunyosini yaratib beradi. Inson xakteri uning ichki dunyosi bilan aniqlanadi. Sahnada esa bu qahramonning yuzida aks etadi. Ayniqsa, katta yoshli qahramonning xarakterini grim orqali ifodalash osonroq kechadi, uning ko‘zlari, qoshlari, og‘zi, burni, yuzdagi ajinlari, mushaklarining bo‘shashganligi qaysidir ma’noda qahramon xarakterida aks etadi.

Lekin har doim ham xarakterni tashqi ko‘rinish orqali ifodalab bo‘lmaydi. Tashqi ko‘rinish, ko‘pincha, aldamchi

bo‘ladi. Shuning uchun aktyor o‘z qahramonining xarakterini o‘z tashqi qiyofasida aks ettirishga harakat qilishi va buni grim orqali namoyon eta olishi kerak.



Rasm. Yuz mimikasi: xursandchilik, qayg‘u, jahldor

Teatr, sirk, balet, estrada tomoshalari va kinofilmlarni kuzatib turib, rol ijro etuvchilarning grimplari bir-biriga umuman o‘xshamasligini va bu janrga bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Shuning uchun ham operadagi grim dramatik teatr grimidan, operettadagi grim esa estrada va sirk grimidan keskin farq qiladi. Kino grimi, ayniqsa, alohida ahamiyatga ega.

Opera va baletda grim biroz yorqinroq qilinadi. Bunda grimning mayda qismlariga katta e‘tibor qaratilmaydi, chunki orkestr jamoasi tomoshabinlar zali bilan sahnani bir-biridan uzoqlashtiradi. Opera qo‘shiqchilari grim bo‘yoqlari va postij vositalarining (parik, soqol-mo‘ylov v.b.) yorqin ranglaridan foydalanishadi va ko‘z hamda qoshlarning yaqqol ko‘zga tashlanib turishi uchun ko‘proq bo‘yaladi. Bunda ijro etuvchi o‘z individualligini hamda o‘z yuzining xususiyatlarini yoddan chiqarmasligi zarur.

Operettada esa bufonli (kulgili) grimdan, yorqin rangli bo‘yoqlardan foydalaniladi. Operettadagi musiqalar o‘zining

jo‘shqinligi, quvnoqligi bilan ajralib turadi, shuning uchun ham sahna qahramonlarining grimi musiqaga mos tushishi uchun ko‘zga tashlanadigan, o‘ziga jalb qiladigan ranglar qo‘llaniladi.



Rasm. Obrazli grim.

Sirkda qo‘llaniladigan grim bayramona kayfiyatni ifoda etishini talab qiladi. Olovlar, mushakbozlik, liboslarning xilma-xilligi grimda zarlardan, yonib turgan va yorqin ranglarni qo‘llashni talab qiladi.



Rasm. Sirkdagi grim

Estradada ham grim xuddi sirkdagidek amalga oshiriladi.

Dramatik teatrdagi aktyorlarning grimi tabiiyligi va hayotiyliги bilan ajralib turadi. Hozirgi paytda ko‘pchilik aktyorlar bo‘yoqlardan kamroq foydalanishni afzal ko‘rishmoqda.

Eskiz (nusxa) ustida ishlash. Eskizlash (nusxalash) dramatik asarning obrazini yaratish uchun ijodiy jarayon hisoblanadi. Eskiz (nusxa) yaratish uchun grimchi ko‘p adabiy ma‘lumotlarga ega bo‘lish kerak, bu sahnaviy qahramonning tashqi ko‘rinishga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib xarakterga oid grim yaratish uchun ishlar quyidagi tayyorlov bosqichlariga bo‘linadi:

- adabiy asarni chuqur o‘rganish (pyesalar, romanlar, ssenariylar, ertaklar, memuar adabiyotlar);

- qahramonning xarakteri va tashqi ko‘rinishini ko‘rsatuvchi matnlar to‘plamini tanlab olish;

- tanlab olingan matnlar asosida qahramonning shaxsiy varaqlarini tuzish;

- qahramon yashagan davrni o‘rganish, (moda yo‘nalishi, kiyimi, soch turmagi);

- rol ijro etuvchining taxminiy yuz tuzilishini tuzish;

- naturachi yuzining rasmi asosida eskiz (nusxa) tuzish.

Nusxalash makiyaj bilan ishlayotganda ham mavjuddir. Rassom-vizajist ko‘rgazmaga, konkurslarga tayyorgarlik ko‘rganda yoki zamonaviy makiyaj yaratganda, shu ijodiy usul orqali foydalanadi. Grim va makiyaj ustida ishlanganda, ranglar majmuyini bilish lozim. Qadim zamonlardan beri odamlar yorqin qizil, to‘q sariq, sariq ranglarni quvnoqlik, quyosh quvvati ranglari deb hisoblashgan.

Grimda, ko‘pincha, aralash ranglar, bir necha xil bo‘yoqlarni oq bo‘yoq bilan aralashtirilgan holda ishlatiladi. Bunda esa asosiy bo‘yoq o‘z yorqinligini yo‘qotadi. Asosiy ranglardan - ko‘k, qizil, sariq, qora, jigarrang va boshqa ranglar hosil qilish mumkin. Sariq va yashil rangni qo‘shib ko‘k rang, sariq va ko‘k rangdan – yashil, ko‘k va qizil rangdan – siyohrang, qizil va sariq rangdan – olov rang hosil bo‘ladi. Qora bo‘yoqni qo‘shganda rang to‘qroq bo‘lib, uning yorqinligi yo‘qoladi. Yuz yosh, ozg‘in, to‘la, kekxa yuzlar chizmasi bo‘yicha grimlanganda, ranglarni birga qo‘shib ishlatish uchun mumkinligini hisobga olish lozim.

Grim qilayotganda yana boshqa jihatlarni ham hisobga olish zarurdir: milliylik, irqiylik. Bu ranglar gammasidan foydalanayotganda qo‘l keladi. Mongoloid irqiga oid qahramonni jonlantirayotganda, sariq rang gammasi asosiy hisoblanadi,

negroid irqiga oid qahramonni jonlantirayotganda esa jigarrang gamma asosiy o'rinni egallaydi.

Ertak qahramonlarini jonlantirayotganda, turli ranglar gammasidan qo'rqqmasdan foydalanish mumkin. Bunda ertakda uchraydigan fantastik jonzotlar va maxluqlar turli yasamalar va yopishtirmalar, pariklardan foydalanib grim qilinadi.

Bo'lim yuzasidan nazorat savollari

1. *Grim nima?*
2. *Anatomik grim nima?*
3. *Grim qilish texnologiyasi qanday amalga oshiriladi?*
4. *Sahnaviy grim xususiyatlari nimalardan iborat?*
5. *Grim qilishda qanday vositalardan foydalaniladi?*
6. *Ozg'in yuzni grimlash.*
7. *To'la yuzni grimlash.*
8. *Yosh yuzning grimi.*
9. *Katta yoshli ayol va erkakning grimi.*
10. *Nusxa olish deganda nimani tushunasiz?*

2.8. ANATOMIK GRIM

Tayanch iboralar: anatomik grim, yuz shakllari, yoshga oid grim, nusxa olish, haykaltaroshlik – hajmiylik, grim.

Anatomik tuzilishiga ko‘ra bosh suyagi ikki qismga bo‘linadi – boshning miya bo‘limi va boshning yuz bo‘limi. Bosh suyagining miya va yuz qismlarini bir-biriga bog‘langan 23 ta suyaklar birlashtirib turadi. Yuz qismini hajmi jihatidan uncha katta bo‘lmagan 14 ta suyaklar birlashtirib turadi. Yuz shakli va aylanaligini esa kattaroq suyaklar beradi: yuqorigi va pastki jag‘ suyaklar, burun suyagi, yonoq suyagi va chakka suyagi. Boshning yuz qismi suyaklari bir-biriga tep-tekis chekkalari bilan tegib birlashadi. Ayrim choklar maxsus nom bilan yoki birlashadigan ikkala suyak nomlari bilan ataladi.

Grimlash uchun asboblarni cho‘tka va qo‘llarni odekolon bilan artish, yuz terisiga esa yupqa qilib vazelin surish kerak. Upa uchun paxta tamponlarini har doim almashtirish lozim, chunki ular tez kir bo‘lib, har xil mikroblar tarqalishiga sababchi bo‘ladilar. Grim, odatda, plastmassa, suyak yoki yog‘ochsimon pichoq yordamida yuzdan sidirib olinadi. Grimning ko‘p qatlamli joyi alignin bilan yumshatiladi. Bu muolaja yuz terisi grim va vazelindan tozalanmaguncha bajariladi. Grimni artib tashlash uchun qo‘llanilayotgan mato yumshoq va toza bo‘lishi kerak. Bundan so‘ng yuz terisi sochiq yoki paxta bilan artiladi. Grimdan tozalangan yuz terisi yallig‘lanishi mumkin, shuning uchun yuzni iliq suvda yuvib olish lozim. Agar iliq suv bo‘lmasa, yuzga upa suriladi, bunda yuz terisi yaxshilanadi. Grim zamonaviy tushuncha bo‘yicha makiyaj deb ataladi. Grim makiyaj ustida ishlaganda, yuz tuzilishining turli qismlari xususiyatlarini bilish katta ahamiyatga ega. Bularni chuqur o‘rgangandagina, yuqori malakali makiyajni bajarish mumkin. Yuz shakli va yuz turi tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Grim ishlarini amalga oshirish uchun grim bo‘yoqlari, grimda ishlatiladigan asbob-

uskunalar hamda ish joyi zarur bo'ladi. Peshonaning shakli uning suyaklariga bog'liq bo'ladi. Peshona katta, kichik, keng, ensiz, bo'rtib chiqqan, silliq chuqurchali bo'lishi mumkin. Grimlash uchun bo'yoqlar orqali peshonaning shaklini o'zgartirish mumkin. Peshonani bo'rtib chiqarish uchun asosiy (№ 1 + oq) tusdan ochroq, peshonani kichkina ko'rsatish uchun asosiy tusdan to'qroq rang bilan bo'yaladi. Chakkalar jigarrang bilan bo'yalganda, peshonani kichiklashtirish mumkin. Shu bilan birga peshonaning kattaligi qosh tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Tepaga ko'tarilgan qoshlar peshonani ensiz qilib, kalta och rangli qoshlar peshonani katta qilib ko'rsatadi. Qoshlar yuz ko'rinishida katta ahamiyatga ega. Ular ko'zlar chiroyini, jozibadorligini ko'rsatib turadi yoki, aksincha, kamchiliklarini bildirib qo'yadi. Agarda grimda qoshlar noto'g'ri, qo'pol chizilsa, bu holda hamma qilingan ishlar behudaga ketadi. Shuning uchun, avvalo, qoshlar tuzilishini, chiziqlarining shaklini va xarakterini bilib olish zarur. Qosh tuzilishi quyidagi bo'limlarga bo'linadi: bosh qismi, qalin joyi, qoshlarning o'rta qismi, eng ingichka qismi va tashqi qismi. Qoshlar o'zining qalinligiga qarab - keng, uzun, ingichka va shakli bo'yicha - to'g'ri, yoysimon, dumaloq, uycha shaklida bo'ladi. Shu bilan birga qoshlar bir tekisda, bo'lingan, uzilgan ham bo'ladi. Makiyaj va grimda qoshlar juda katta rol o'ynaydi, ular yordamida odamning fe'l-atvori kuchli, yengiltak, quvnoq, g'amginligini ifodalash mumkin. Qalin qoshlar shaklini rang bilan pudrani aralashtirib o'zgartirish mumkin. Hosil bo'lgan aralashma barmoq yordamida, qosh o'sishiga qarshi tomonga bo'yaladi. Qoshni berkitish uchun sovun bo'lakchasi ishlatiladi. Uning uchun sovunning uchli tomoni ho'llanadi va qoshlarga suriladi. Qosh tuklari bir-biriga yopishib ko'rinmaydi. Bundan keyin yuzga umumiy rang surilib, qoshga kerakli shakl beriladi, bo'yoqlar orqali cho'tka bilan chiziladi. Milliy usulda grim bajarilayotganda, qoshlarga qora bo'yoq ishlatiladi, qolgan hollarda, qora bo'yoqni jigarrang va banan (to'q qizil) rangiga

qo‘shib ishlatiladi. Aslida qoshlar har xil kenglikda bo‘ladi, shuning uchun ularga kerakli shakl berish uchun cho‘tka yoki maxsus qalam yordamida ustidan ko‘z chuqurchasini katta-kichikligiga qarab, ko‘zlar bodomsimon qisiq (mangollar, yaponlarga mansub) dumaloq, katta va kichik bo‘ladi. Shu bilan birga, ko‘zlar normal chuqur yoki bo‘rtib chiqqan, bir-biridan uzoq, bir-biriga yaqin joylashgan bo‘ladi. Ko‘z shaklini rassomchilik san’ati yoki haykaltaroshlik usullari (yasama, yopishtirma) orqali o‘zgartirish mumkin. Grim yordamida ko‘z shaklini dumaloqroq, cho‘ziqroq, kichikroq qilish mumkin. Ko‘zni bo‘yash uchun har xil rangdagi bo‘yoqlardan foydalanish mumkin, shu bilan birga, teri, soch va ko‘zlarning rangini hisobga olish kerak. Bug‘doy rangli, sochi va ko‘z qorachig‘i qora odamlarga qora va jigarrang aralashtirilib ishlatiladi. Sochi va tanasi och, ko‘zi havorang, kulrang bo‘lsa jigarrangning o‘zini yoki to‘q qizil (banan) rangli bo‘yoqni ishlatib bo‘ladi. Ko‘zni grimlash uchun pardozi ashyolari-tush, ten, qalamlar ishlatiladi. Ko‘zlarga shakl berishning bir necha turi mavjud.

Bo‘lim yuzasidan nazorat savollari

1. *Grim nima?*
2. *Anatomik grim nima?*
3. *Grim qilish texnologiyasi qanday amalga oshiriladi?*
4. *Sahnaviy grim xususiyatlari nimalardan iborat?*
5. *Grim qilishda qanday vositalardan foydalaniladi?*
6. *Ozg‘in yuzni grimlash.*
7. *To‘la yuzni grimlash.*
8. *Yosh yuzning grimi.*
9. *Katta yoshli ayol va erkakning grimi.*
10. *Nusxa olish deganda, nimani tushunasiz?*

3- BOB. MAKIJAJ TEXNIKASI

3.1. MAKIJAJNI TASVIRIY VA TEXNIKAVIY USULLARI

Tayanch iboralar. makiyaj, hajmiylik, proporsiya, yuzni uqish, rassomchilik.

Makiyaj tushunchasi yaqinda paydo bo'lgan. U yuzni zamonaviy pardoz qilishni anglatadi. Makiyajdan foydalanilganda, yuzni nafaqat tetiklashtirish, balki unga sog'lom ko'rinish va yuzning o'ziga xos kamchiliklarini (ko'z shaklining kichikligi, qoshlarning kaltaligi, ingichka lablar, kalta kipriklar)ni hisobga olgan holda, ularni bezakli kosmetika yordamida, ya'ni makiyaj yordamida tuzatish mumkin. Yuzga bo'yoq surayotganda me'yorni bilish va haddan ortiq pardoz vositalaridan foydalanish yuzning tabiiy chiroyini buzishini yodda tutish lozim. Makiyaj insonning o'zini tutishi, ichki va tashqi madaniyatiga mos tushishini talab qiladi. Bugungi kunga kelib, makiyaj zamonaviylashdi. Ayni vaqtda, unga alohida xizmat turi sifatida qaralmoqda. Zamonaviy moda kiyinish, soch turmagi va makiyaj bo'yicha 2 xil usulda rivojlanmoqda – klassik uslub va avangard (ilg'or) yoshlar uslubi. Klassik uslub o'zining tabiiyligi, ko'zga tashlanmaydigan ranglar jilosi bilan ajralib turadi. Avangard uslubida esa tajriba usulini qo'llash mumkin. Makiyaj ustida ishlayotganda rassomchilik usuli, ya'ni bo'yoqlar bilan ishlash tushuniladi. Rassomchilikda tasvirlash vositalari – rasm, nur, soya, oqish va qoramtir bo'yoqlar vositasida surat olish, chiziqli grim, rang, shu'ladan foydalaniladi.

Chiziqlar yordamida rassomchilikda chizilayotgan turli shakllarning chegaralarini ifodalash mumkin. Shu qatori

makiyajda ham kosmetolog-vizajist yuz tuzilishiga qarab yuzdagi chiziqlar ohangini aniqlab olishi zarur (qosh, ko‘z, lablar, peshana, burun, iyak). *Nur* predmetning yoritilgan joyidir, *soya* esa uning qoraytirilgan qismidir. *Oqish va qoramtir bo‘yoqlar vositasida surat olish* – bu qorong‘ulikdan yorug‘likka qarab ranglarning o‘zgarishidir. *Shu‘la* predmetning hajmini katta ko‘rsatish maqsadida, uning eng ko‘zga ko‘rinadigan qismidagi ochiq rangdagi dog‘dir. Predmet bir qismining ranggini oqartirish va ikkinchi qismini esa qoraytirish evaziga, inson ko‘ziga predmetning hajmini kattalashtirilgan holda ko‘rinishiga erishish mumkin.

Rang eng muhim rassomchilik elementlaridan biri hisoblanadi. Uchta asosiy rang mavjud: qizil, ko‘k va sariq. Qolgan ranglar esa shu ranglar aralashmalaridan kelib chiqqan bo‘ladi. Masalan, olov rangni qizil va sariq rangni aralashtirishdan hosil qilish mumkin, yashil rangni esa sariq va ko‘k ranglarini aralashmasidan hosil bo‘ladi. Ranglarni xarakterlovchi belgilardan biri ranglarning to‘yinganligidir. To‘yinmagan ranglar esa oqish ranglar deyiladi: och pushti, och havorang, och siyohrang. Ranglarni xarakterlovchi belgilardan ikkinchisi esa yorqinlikdir. Ranglar yorqinligiga qarab to‘q yoki och bo‘lishi mumkin. Masalan, to‘q malina rangli, to‘q qizil, och sarg‘ish rang.

Ranglar uyg‘unligi – bu “issiq” va “sovuq” ranglarning muvozanati moslashuvchanligi. “Uyg‘unlik” so‘zining 3 ta asosiy mazmuni mavjud. Birinchi navbatda – alohida chiroyli ranglarni ajratish va ularning eng mos tushadigan joyini aniqlash. Ikkinchidan, bu “issiq” va “sovuq” ranglar gammasining joylashgan ketma-ketligini aniqlash. Uchinchidan, kontrast asosida ranglarning taqqoslanishi. Vizajist va kosmetologlarning ish uslublari rassom kabi bir xil. Rassom – akvarel va moy bo‘yoqlari bilan ishlaydi, vizajist esa oqartiruvchi va tuslovchi upalar,

surtmalar, lab bo'yoqlari, qalamlar, ya'ni dekorativ pardozlash vositalari bilan ish olib boradi. Ular dekorativ kosmetika va makiyajda moda yo'nalishini keskin his qila bilishlari kerak.


Yuzni modellashtirish. Yuzni modellashtirish ijodiy jarayon hisoblanadi. Yuzni modellashtirishda, shoshqaloqlik to'g'ri kelmaydi - oyna oldida yuzni o'rganish, kosmetika vositalarini tanlash, rang va bo'yoqlarni tanlash, makiyajni sinovlardan o'tkazib tanlash, ko'z ilg'amagan chiroyini ko'rsata bilish, yuzdagi kamchiliklarni berkitish, kosmetika vositasida yuz terisini go'zallashtirish. Mukammal makiyaj uchun chaqqon usta bo'lish kerak. Makiyaj jarayonida maxsus dekorativ pardozlash vositalari ishlatiladi. Ularga asosan, ton (to'g'rilash uchun asosiy, tuslovchi), upa, turli rangdagi rumyana, qosh, lab, qovoqlarni bo'yash uchun kontur qalamlar, turli rangdagi lab bo'yog'i, tenlar va kipriklar uchun har xil turdagi tushlar kerak.

Makiyaj ishlarida quyidagi asboblari ishlatiladi: aplikator, cho'tkalar, har xil sifatli cho'tkalar, katta tishli, o'rtacha tishli, mayda tishli taroqlar, pinset v.b. Xom ashyolarga kosmetik vositalar, dorivor giyohlar kiradi.

Pudra (Upa). Eng ko'p tarqalgan va keng ishlatiladigan kosmetika vositasi - bu upadir. Upani terini nursizlantirish, yog'li terini quruqlashtirish uchun suriladi. Upa yordamida terining rangini och yoki to'q rangga o'zgartirish mumkin. Upalar ikki xil bo'ladi: dekorativ va gigiyenik. Tarkibi bo'yicha upalar o'simliklardan va minerallardan tayyorlangan bo'ladi. Mineral upaning tarkibiga bo'r, talk, sink oksidi, kaolin kiradi. Mineral upaning tarkibiy qismlari oqartiruvchi va burushtiruvchi xususiyatlarga ega, u yallig'lanishning va teri qizarishining oldini olish xususiyatiga ham ega. O'simliklardan tayyorlangan upaning tarkibiga har xil kraxmallar kiradi: bug'doyli, guruchli, kartoshkali, makkajo'xorili. Ko'pincha, ikkala turdagi upa elementlar aralashtirilgan holda bo'ladi. Upa kukun ko'rinishida, qattiq, zich, katta bo'lmagan aylana yoki yumaloq dori shaklida

qadoqlangan bo‘ladi - bu zichlashtirilgan upa deb ataladi. Upalarning krem-upa, quruq upa, flakon idishlardagi suyuq upa turlari mavjud. Hozirgi kunda makiyaj uchun kukunli upa keng qo‘llaniladi.

Yuzni qizartiruvchi bo‘yoq. Yuz qizartiruvchi bo‘yoqdan teatr grimida, maishiy kosmetikada foydalaniladi. Bu bo‘yoq yuzga sog‘lom ko‘rinish berishda zarur bo‘ladi va ular yordamida yuz dumaloqligini yoki ularning alohida qismlarini to‘g‘rilash mumkin. Yuz qizartiruvchi bo‘yoqlar mayda kukun ko‘rinishida bo‘ladi va upani eslatadi, katta bo‘lmagan yumaloq dori ko‘rinishida – zichlashgan, krem obrazidagi, suyuq shisha yoki yelim idishlarda bo‘ladi.



**Rasm. Yuzni qizartiruvchi bo‘yoqlar yordamida
korreksiya qilish.**

Yuz qizartiruvchi bo'yoqlar tuzilishiga qarab yog'li va quruq, ranggi to'q va erkin – qizil, pushti, sabzirang, malinarang bo'ladi. Asosiy rang o'z ichiga bir necha ranglarini oladi. Yuzni qizartiruvchi bo'yoqlar yuzni jonlantiradi, shuning uchun grimdan keyin yuz xira bo'lib qolganda, ixcham ko'rinishdagi bo'yoqdan foydalanib, yuz ozgina qizartiriladi. Suyuq qizartiruvchi bo'yoqlar tartiblilikni talab qiladi, ularni yuzda makiyajda oziqlantiruvchi kremni surishdan oldin suriladi.

Lab bo'yog'i. Lab bo'yog'i 2 turga bo'linadi; dekorativ va gigiyenik. Dekorativ pomadadan makiyajda, grimda foydalaniladi, chunki u labni yanada ta'sirli ko'rsatadi. Gigiyenik pomada – dorivor, rangsiz, uning tarkibiga turli xil komponentlar kiradi. Bu komponentlar terini yumshatib, uni quruqshab ketishidan saqlaydi. Lab bo'yog'i zararsiz. Lab bo'yog'lari quruq, yarim yog'li va yog'li; qalamlarda, tayoqchalarda, sterjenlarda bo'ladi.

Lab bo'yog'i yordamida labning shaklini o'zgartirish mumkin, semiz lablarni ancha ingichkaroq va, aksincha, ingichka lablarni qalinroq qiladi. Og'iz shaklini chiroyli qilib qo'yish mumkin, masalan, birinchi jahon urushidan keyingi yillarda, amerikacha lablar – katta qalin bo'yalgan lablar urf bo'lgan.

Ko'z uchun bo'yoq (ten). Ko'z qovog'ini rangli bo'yog'lar bilan ko'zdan qoshgacha bo'yash urf bo'ldi. Ten surishning ko'pgina usullari bor, hammasidan yaxshisi kichkina cho'tkadan foydalanib bo'yash. Tenlar har xil ranglarda bo'ladi; havorang, och jigarrang, pushti, siyohrang, yashil, kulrang. Modada pushti va qizil ranglarning har xil ko'rinishlari majmuasi paydo bo'ldi. tenlar quruq qutilarda ranggiga qarab alohida idishlarda, suyuqlari polietilen yoki shisha idishchalarda bo'ladi. Ularning tarkibi zararsiz. Tenlar yordamida ko'zning shaklini o'zgartirish mumkin.



Rasm. Ko'zni bo'yoqlar yordamida korreksiya qilish

Kiprik uchun tush. Uzun kipriklar har doim chiroyli hisoblangan. Ular ko'zga chiroy va sirlilik beradi. Kipriklarning uzunligi, qalinligi uchun maxsus tushdan foydalaniladi, bu tush bir necha komponentlardan iborat, masalan mum, sovun, qorakuya, yog', bo'yaladigan ashyolar v.b. Tushlar har xil ranglarda bo'ladi, qora, jigarrang, ko'k. Tabiiy erkin rangli kipriklarni to'qroq qilib bo'yash mumkin. Tushlar 4 qirrali qutilarda joylashgan va ichida kichkina cho'tkasi bor. Ular uzoq saqlaydigan idishchalarda ham bo'ladi, ularning ichida sterjen ham mavjud. Tushlardan tartibli foydalanish va kiprik bo'yayotganda ko'zlarni katta ochish kerak. Odatda, kipriklarni grimdan keyin, oxirida bo'yash lozim.

3.2. YUZ SHAKLI, QISMLARI VA MUTANOSIBLIGI . “YUZNI O‘QISH”

Tayanch iboralar: makiyaj, hajmiylik, proporsiya, yuzni o‘qish, assimetriya, haykaltaroshlik, rassomchilik, uchburchak, to‘rtburchak, doira.

Yuz qismlarining har bir a‘zosi o‘z tuzilishi va joylashishiga ko‘ra bir-biridan keskin farq qiladi. Ularda uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish mumkin.

Yuz turini aniqlash mutaxassislar tomonidan “yuzni o‘qish” deb ataladi. Makiyaj ustida ishlayotganda, yuzni o‘qishda quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish lozim (teri turi va ranggi, yuz shakli, mutanosiblik, assimetriya, ko‘zlar, qoshlar, burun, iyak, yonoq, peshona shakli; ko‘z, qosh, lablar, soch rangi; yoshi, millati, individual xususiyatlari). Yuqorida aytib o‘tilgan barcha elementlarni chuqur o‘rgangan holda, makiyajni amalga oshirish zarur.

Barcha davr rassomlari va haykaltaroshlari inson yuzining shaklini o‘rganishga, uni chiroyini ochishga, idealini topishga harakat qilishgan. Uzoq izlanishlardan so‘ng, antik davr yuz tuzilishining namunasi qabul qilingan va bu asosda yuz turini aniqlash mumkin bo‘lgan. Antik davr haykaltaroshlik ishlari, rasmlar va bezaklarga qaraydigan bo‘lsak, ovalsimon yuzni ellips yoki doira shaklida tasvirlanganligin ko‘rishimiz mumkin. Bunga qadimgi grek xudolari: Zevs, Gera, Afrodita, Afina, Diana, Venera, Appolon, Germeslarning yuzlari yaqqol misol bo‘la oladi.

Inson yuzi teng uch qismga ajratilgan: yuqorigi, o‘rta va pastki qism.

Yuz shakli tushunchasi yuzning tashqi ko‘rinishini bildiradi. Yuz tuzilishi romb, to‘rtburchak, uchburchak, doira, trapetsiya kabi geometrik shakllar o‘xshashligiga ega.

Yuz turi bu juda keng tushuncha bo'lib, odamning xarakteri, yuz tuzulishi va o'ziga xosligi kabi tushunchalarni anglatadi.

Ko'pincha, odamning tashqi ko'rinishi uning ichki dunyosini bilib olishga yordam beradi. Yuz turini aniqlashni, yuzni o'qib olish desa ham bo'ladi.

Yuz shaklining ta'rifi. XX asrning 70-yillarida (1974-yilda) yuz shaklining zamonaviy shakli qabul qilindi, bu ma'lum ma'noda yuz makiyajining ishini osonlashtirdi. Yuz shakllari quyidagicha: dumaloq, to'rtburchak, handasaviy, uchburchak trapetsiyali, cho'zinchoq.

Dumaloq yuz - yuz va yuz suyagi sohasidagi o'rta qismning kengayganligidir. Yuz o'lchovlari gorizontal va vertikaliga nisbatan bir-biriga yaqinlashadi. Bunda chakka chuqurchasidagi, iyakdagi va pastki jag'dagi dumaloqlik kuzatiladi. Yana bu yuz shakliga ikki barobar iyak dumaloqligi va yumshoqligi alohida shakl beradi.

To'rtburchak yuz - o'z tuzilishi bilan to'rtburchakni eslatadi. Bunda yonoqlarning o'rta qismi kengroq, pastki jag' biroz keng va burchaklari keskin tasvirlangan bo'ladi.

Ovalsimon yuz - yuz qismlarining oval shakliga o'xshashligi bilan ajralib turadi. Bunda yuz ko'rinishi to'lqinsimon bo'ladi, ayniqsa, yonoqlar, pastki jag' va iyak. Bunday yuzni ideal deb hisoblash mumkin.

Romb ko'rinishidagi yuz shakli rombni eslatadi. Bu yuz o'zining kichik peshonasi, yonoq suyaklarining bo'rtib chiqqanligi bilan tavsiflanadi. Bir qarashda, bunday shakldagi yuz peshonasi va iyaklari toraygandek, yonoq suyaklari esa kengaygandek ko'rinadi.

Trapetsiyali yuzning yuqorigi chakka soha qismlari toraygan, pastki qism yanada og'irroq, pastki jag keskin ko'rinishiga ega bo'ladi. Bunday yuz shakli trapetsiyani eslatadi.

Cho'zinchoq yuz - baland peshana hamda cho'zinchoq iyakga ega bo'ladi. Yuzni yaxshilab o'rganganimizda gorizontal

chiziqlardan vertikal chiziqlarning ko‘pligini ko‘rishimiz mumkin.

Yuz qismlariga qosh, ko‘z, burun, peshana, iyak va lablar kiradi.

3.3. MAKIYAJ TURLARI VA UNING MAQSADI MAKIYAJ VA MODANING YO‘NALISHI

Tayanch iboralar: makiyaj, avangard, oqshom, stil, kosmetik vositalar, rummyana, ten

Makiyaj bir necha turlarga bo‘linadi: kunduzgi, oqshom, avangard (ko‘rgazma-tanlov uchun) v.b. Har bir turi o‘ziga xos ranglari, stili va imkoniyatlari bilan takrorlanmas bo‘ladi.

Kunduzgi makiyaj bir qarashda oddiydek tuyuladi, lekin obrazli va avangardli makiyajda uchraydigan bir qator qiyinchiliklarga ega bo‘ladi.

Makiyaj quyidagicha amalga oshiriladi: yuzga krem surish; uni tozalash, terini changdan tozalash, yuzni alignin, doka, paxta, qog‘oz salfetka yordamida quritish; umumiy rang surish: tushlash, yuzni upalash, rummyana surish, qoshni bo‘yash; qosh tagiga ten surish, ko‘zning yuqorigi qovog‘iga kontur chiziq chizish, ko‘z makiyaji. Lablarga shakl berish.

Murakkab makiyaj ham oddiy makiyaj kabi amalga oshiriladi, lekin uni bajarish jarayonida, yuzni to‘g‘rilashda duch keladigan muammolar paydo bo‘lishi mumkin: rummyana yordamida yuz shaklini kengaytirish yoki toraytirish, yuz qismlari – qosh, ko‘z, burun, lablar shaklini o‘zgartirish. Kosmetik vositalar yordamida yuz terisida uchraydigan kamchiliklarni yo‘qotish mumkin – yuz terisi rangini biroz yorqinroq yoki, aksincha, quyoshda qoraygandek rang berish, yonoqlarga suriladigan qizillikni biroz yorqinroq, hayotiyroq va hattoki yuz tuzilishini o‘zgartirish mumkin. Agar yuz ko‘rinishi g‘amgin ko‘rinsa, uni bo‘yoqlar yordamida o‘zgartirish mumkin.

Hozirgi kunda moda ko‘p qirrali bo‘lib, o‘zida rasmiy yo‘nalishlarni, stillarni inobatga olib, o‘ziga xos kutilmagan quyidagi obrazlarni yaratadi: e‘tiborni jalb etuvchi kiyimlar, soch turmaklari, taqinchoqlar, bijuteriya hamda makiyaj.

Makiyajning turlari. Makiyaj kunduzgi, kechqurungi va avangard bo‘ladi. Kunduzgi va kechqurungi makiyajning ko‘plab variantlari mavjud bo‘lib, ular turli stil, yo‘nalishlar asosida tanlanadi. Shu bilan birga, har bir variant o‘zining ranglar gammasining betakrorligi, stilning o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Romantik ruxdagi ayollar va qizlar kayfiyatini ifodalash maqsadida, nozik binafsha rang, och havorang, sadaf ranglari qo‘llaniladi. Jasur, qat‘iyatli qizlar va ayollar kayfiyatini ifodalashda, yaqqol ko‘zga tashlanadigan, yorqin ranglar tavsiya etiladi, bunda ko‘k, pushti va sariq rang qo‘llaniladi. Folklor uslubini afzal ko‘radigan ayollar va qizlarga yashil, qizg‘ish-jigarrangli bo‘yoqlar qo‘llaniladi. Yoshlar makiyajida esa yorqin, jo‘shqin va sof ranglar qo‘llaniladi: oq, sariq, qizil, yashil. Makiyaj vaqtida bejirim ranglarni tanlash, sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya kilish kerak. Makiyaj texnologiyasi bo‘yoqlarni tayyorlash, ish joyi va asboblarni, yuzni tayyorlash va asosiy ishga tanlangan jadval, nusxalardan iborat.


Bo‘lim yuzasidan nazorat savollari

- 1. Makiyaj deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Yuz qismlari nimalardan iborat?*
- 3. Yuz shakllari necha xil bo‘ladi?*
- 4. Qanday makiyaj turlari bor?*
- 5. Kechqurungi va kunduzgi makiyajning farqi nima?*
- 6. Makiyaj qilishda qanday vositalardan foydalaniladi?*
- 7. Yuzni modellashtirish nima?*
- 8. Oddiy va murakkab makiyaj qanday amalga oshiriladi?*
- 9. Makiyajga modaning ta‘siri qanday?*
- 10 Makiyajning asosiy qoidalari nimalardan iborat?*

4-BOB. MAKIJAJ TEXNOLOGIYASI

4.1. ODDIYVA MURRAKAB MAKIJAJ TEXNOLOGIYASI

Tayanch iboralar. Kechqurungi, kunduzgi, obrazli makiyaj, korreksiya, avangard, konservator.



Rasm. Kunduzgi makiyaj sxemasi.

a). 1. Jigarrang. 2. Oq rang. 3. Kumush rang. 4. Qora rang. 5. To‘q kul rang. 6. Kumush rang. 7. Pushti mis rang. 8. Pushti rang. 9. Pushti-havo rangi.

b) 1. Kul rang. 2. Ko‘k-kumush rang. 3. To‘q sarik-mis rangi. 4. Och jigarrang. 5. Qora rang. 6. To‘q yashil rang. 7. To‘q sariq rang. 8. Tilla-mis rang.

Makiyaj (yuzni bezash) qilishdan oldin yuzni changdan, yog‘dan tozalash kerak. Yuzni tozalashda va makiyajga tayyorlashda quyidagi kosmetik vositalardan foydalaniladi: tozalangan yuzga yupqa qilib kunduzgi krem suriladi. Bunda massaj qoidalariga rioya qilgan holda yuz mushaklariga zarar yetkazmaslik zarur; barmoq uchlari yengil va to‘lqinsimon harakat qilish kerak. Teriga bo‘yoqlarning qulayroq surilishi maqsadida, qalin cho‘tka yordamida yuzga biroz upa suriladi. Rumyana ham xuddi upa kabi yuz shakliga bog‘liq bo‘ladi.

Ko‘z makiyaji alohida e‘tiborni talab qiladi. Qoshlar konturli qalamlar yordamida bo‘yaladi va shakl beriladi. Bunda jigarrang, kulrang, qora rangli qalamlardan foydalanish mumkin. Qovoqlar rangi ko‘z rangi, soch rangi, kiyim rangiga qarab suriladi. Cho‘tka yoki applikator yordamida rangli tenlar suriladi. Makiyaj qilayotganda, yuzda uchraydigan kamchiliklarni – uzun burun, kichkina ko‘zlar, kalta qoshlarni bo‘yoqlar yordamida to‘g‘rilash mumkinligini yodda tutish lozim. Ko‘zlarni katta ko‘rsatish uchun konturli qalam yoki cho‘tka yordamida yuqorigi kipriklar ustidan chiziq tortish kerak. Ranglardan esa, qora, jigarrang, ko‘k ranglardan foydalanish mumkin. Konturli qalam yordamida pastki kipriklar ostidan chiziq tortish kerak. Kipriklar tushlar yordamida uzaytiriladi. Bunda tushning nam cho‘tkasi kipriklarning ildizidan uchiga qarab tortiladi, bu harakat bir necha bor takrorlanadi.

Lablarga konturli qalam bilan chiziladi, bunda lablar shaklini kichik yoki, aksincha, kattaroq qilib ko‘rsatish mumkin. Ichki qismi lab bo‘yog‘i bilan bo‘yaladi.

Murakkab makiyajda asosiy va yordamchi ranglar orqali qo‘yilgan maqsadga erishish mumkin. Yordamchi bo‘yoqlar bilan asosiy rangni kuchaytirish va ajratib ko‘rsatish mumkin. Masalan, moviy ko‘zlarning ranggini ajratib ko‘rsatish kerak bo‘lsa, to‘q sariq rang bilan och havo rangni ishlatish mumkin. Yashil ko‘zlar uchun qizg‘ish rangli tenlar ishlatiladi. Jigarrang


ko‘zlar uchun suyuq rang bo‘yoqlar ishlatiladi va sariq rangga yaqin bo‘yoqlar ishlatilganda, bir-biriga moyilligini va kuchini inobatga olish kerak. Siyohrang lab bo‘yog‘i sariq tushlarga umuman tushmaydi. Qizil bilan siyohrang mayin ko‘rinadi. Agar sariq sabzi rang bo‘lsa, sovuq ko‘rinadi. Ko‘z bo‘yoqlarining ranggi terining ranggiga, sochlarga, qoshlarga, ko‘zlarning ranggiga qarab tanlanadi.



Rasm. Murakkab makiyaj turlari.

Murakkab makiyajga kechqurungi makiyaj, obrazli makiyaj, yosh kelin makiyaji kiradi.

Obrazli makiyaj. So‘nggi vaqtlarda sartaroshlar va kosmetologlarni tanlov asosida qabul qilina boshlandi. Bunda bajarilgan ishning nafaqat vaqti, bajarish usuli, balki fantaziyasi va didi hisobga olinadi. Obrazli fantaziyali makiyaj ko‘p jihatdan teatrdagi ertak-spektaklga o‘xshab ketadi. Uning mavzulari esa quyidagicha bo‘lishi mumkin: “Kuz”, “Bahor”, “Qish”, “Qorqiz”, “Karnaval”, “Qaldirg‘och”, “Tulki”, “Atirgul”, “Kolombina”.



Rasm. Obrazli makiyaj turlari.

Yuqorida tilga olingan nomlar yaratilayotgan obrazlarning ichki dunyosini ochib berishga yordam beradi. Masalan, “Kuz” soʻzini tilga olganimizda, koʻz oldimizga sargʻaygan barglar, soʻligan gullar, kul rang osmon keladi.

Yoshga oid makiyaj texnologiyasi. Oʻrta yoshdagi ayollar uchun makiyaj.

Yillar oʻtgani sayin insonning yuzi oʻzgarib boradi. Har bir yoshning oʻziga xos xususiyatlari bor. Shuning uchun oʻrta yoshdagi ayollarga makiyaj qilinayotganda, yoshga oid oʻzgarishlarni hisobga olish lozim: ajinlarning ajralib turishi, terida dogʻlar, yonoqlardagi kapillyarlarning yorilishi, tepa qovoq va lablarning osilishi, baqbaqa paydo boʻlishi, terining boʻshashishi inobatga olish kerak. Bu yoshdagi ayollar xushbichim koʻrinishi, tabiiy koʻrinishi uchun makiyaji yengil va nozik boʻlishi kerak. Bunda koʻzga tashlanadigan koʻk tenlardan va boʻyoqlardan foydalanib boʻlmaydi. Makiyaj ustida ishlaganda, yuzni nafaqat tozalash, balki qalam va toʻk rangdagi upa bilan toʻgʻrilash ham mumkin. Albatta, bu oʻzgartirishlar koʻzga tashlanmasligi uchun dekorativ usullar bilan yuzning boshqa qismlariga eʼtibor qaratish mumkin.

Bu makiyajda quyidagi jozibali pardozlash vositalaridan foydalaniladi: tabiiy oqartiruvchi krem, kukunsimon upa, koʻz va qosh uchun toʻq qizil, jigarrang, kul rang konturli qalamlar, koʻz qovoqlari uchun turli tilla rangdagi tenlar, kipriklar uchun toʻq jigarrang tush, rummyana va lab boʻyoqlari.

4.2. YUZ SHAKLINI VA QISMLARINI KORREKSIYALASH

Tayanch iboralar. *dumaloq yuz, to‘rtburchak yuz, cho‘zinchoq yuz, uchburchak yuz, romb shakli, trapetsiyali yuz, ten, rumyana, cho‘tka, proporsiya.*

Bo‘yoqlar yordamida yuz shaklini o‘zgartirish mumkin. Lekin ovalsimon yuz to‘g‘rilashga muhtoj emas. Qolgan yuz shakllari, esa bo‘yoqlar yordamida o‘zgartirilishini ko‘rib chiqamiz.

Dumaloq yuz. Dumaloq yuzni cho‘zinchoqroq qilish uchun, jag‘ hajmini ozgina kichraytirish lozim. Buning uchun yuz terisiga umumiy rang berilgandan keyin quloq yonida, tepa chuqurchalarni qalin bo‘yoq cho‘tkalari yordamida to‘qroq rangli upa (bronzatorlar) suriladi. Bunda rumyananing to‘q ranglaridan foydalaniladi, uni yuzga surilganda yuz shakliga uchburchak ko‘rinish beradi. Sochning ozgina tutami bilan yuzning chiqib turgan yonoqlarini to‘sishtirish maqsadida, o‘sha joyni yopib qo‘ysa ham bo‘ladi.

To‘rtburchak yuz. Umumiy rangni surgandan so‘ng, rumyanani yuz yonoqlariga uchburchak shaklda, ensa tomonga qarab surish zarur. Rangning yorqinligidan foydalanib, rangni balandroq ko‘tarish kerak. Yuzning yon tomoni va jag‘ning pastki qismiga to‘qroq upa suriladi. To‘rtburchak yuz makiyajining asosiy maqsadi, bu ranglar yordamida yuz shaklini “yengillashtirish” mumkin.

Cho‘zinchoq yuz. Umumiy rang berib, rumyanani peshonaga va iyakka suriladi. Yuzning tepa va pastki qismiga upa suriladi. Makiyajning maqsadi chylolka yordamida yuzni kichiklashtirishdir. Rumyana yordamida yuz ko‘rinishini kengaytirish mumkin. Rumyanani yonoqdan quloq tomongacha suriladi. Surilgan rumyanani gorizontal holda yoyish kerak. Bunda och rangli rumyanalar tanlanishi lozim.

Uchburchak yuz. Umumiy rang surilgandan so‘ng, chakka suyaklariga, iyakka, yonoqlarga tus berish maqsadida to‘q rangli upa ishlatiladi. Ochiq rangli rumyanani romb shaklida, yuzning oldi qismiga suriladi. Bu makiyajdan asosiy maqsad yuzning kengaygan va toraygan qismlarini tenglashtirishdir.

Romb shaklidagi yuz. Bu shakldagi yuzga to‘q rangli upani yonoqlarga surish lozim. To‘q rangli rumyanani surayotganda esa aniq bir rasmni nazarda tutish kerak. Bunda rумыana uchburchak shaklda suriladi. U ko‘zlarning tashqi burchagi tomon yoyiladi va yuzdagi qirrali chiziqlarni bilintirmaslikka yordam beradi.

Trapetsiyali yuz. Umumiy rang surilgandan so‘ng, rумыana yonoqlarning tepa qismiga to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida suriladi. Pastki jag‘ga to‘q rangli upa ishlatiladi. Makiyajdan asosiy maqsad, bir qarashda chiroyli bo‘yalgan ko‘zlarga e‘tiborni jalb qilib, yuz shaklidagi nuqsonlarni biroz yumshatishdan iborat.

Qosh. Ishni qosh tuzatishni o‘rganishdan boshlaymiz. Qoshlarni har xil kontur qalam yordamida qora, kulrang, jigarrang, to‘q qizil rangda o‘zgartirish mumkin. Qosh yuz tuzilishida muhim ahamiyatga ega. Qoshni o‘zgartirish orqali yuz ifodasini ham o‘zgartirish mumkin. Bunda pinsetdan foydalaniladi. Keng qoshlar yuzni dag‘al ma’yus qilib ko‘rsatadi. Tepa arka shaklidagi qoshlar yuzni sho‘x, xushfe‘l ko‘rsatadi. Qosh makiyajida qosh bilan ko‘zlar uyg‘un bo‘lishi lozim.

Ko‘zlar. Ko‘zlar shakli dumaloq, chuqur, ichiga kirgan, osilgan va do‘ng bo‘ladi. Ko‘zlarni makiyaj qilayotganda anatomiyani yaxshi bilish kerak. Dumaloq ko‘zlar chizilib bodom shaklida yaqinlashtiriladi. Ko‘z bo‘yoqni past tepa qovoqlarga, ko‘proq, ko‘zning tepa burchaklariga suriladi. Ko‘zlarning konturi 2 mm ga cho‘ziladi. Tepa va past qovoqlarning konturi parallel ketadi va qo‘shilmaydi. Tush kipriklarning tashqi burchaklariga suriladi. Do‘ng ko‘zlarni to‘q rangli tenlar bilan, qoshning tagidan esa och rangli tenlar bilan vertikal suriladi.



Rasm. Ko'z qismining makiyaji

Chuqur ko'zlarni kengaytirish uchun och bo'yoqlar bilan podvodka dumaloq ko'zlarga surilgandek suriladi.

Osilgan ko'zlarning tashqi burchagiga ko'z bo'yog'i suriladi. Bo'yoqlar yonoqdan chakkaga qarab suriladi. Tepa qovoqlarga konturda chiziladi. Ko'zning o'rtasidan chakka tomonga chiziladi. Pastki qovoqning konturi esa tepa kontur bilan ko'zlarning tashqi burchagiga qo'shiladi.

Burun. Burunning shakli va o'lchamlarida boshning, peshananing ko'z chuqurligi va ularning oraliqlari inobatga olinadi. Burunni o'zgartirish uchun bosh shakllarining proporsiyasiga qarash lozim. Uzun burunlarning past qismiga to'q upa suriladi, kalta burunning yonlari to'q rangli upaga, burunning beli esa och upaga bo'yaladi. Burunning yonlariga to'q upa yoki to'q rangdagi tuslovchi krem ishlatiladi.

Iyak. Semiz, oldiga chiqqan to'rtburchak yoki ingichka iyakka to'q rangli upa, iyakning o'rtasiga rangli bo'yoq suriladi. Kalta iyakni esa labning pastki chuqurligidan iyakning uchigacha och rangda suriladi.

Lablar. Lablarni o'zgartirish uchun ko'p sinchkovlik kerak. Ularni kengaytirishda kontur qalamdan foydalanish mumkin. Bunda kontur lablar burchaklariga suriladi.

Peshona. Agar peshona do'ng bo'lsa, to'q rangli upa yoki korrektor krem bilan bo'yaladi. Peshona keng bo'lsa, chakkalarga to'q rangli bo'yoq suriladi.

Bo'lim yuzasidan nazorat savollari

1. Oddiy makiyaj texnologiyasi qanday bajariladi?
2. Makiyaj qanday ketma-ketlikda amalga oshiriladi?
3. Peshonadagi nuqsonlar qanday bartaraf etiladi?
4. Lab va qoshdagi nuqsonlar qanday bartaraf etiladi?
5. Yuzdagi nuqsonlarni bartaraf etishdan maqsad nima?
6. Uchburchak shakldagi yuz qanday korrektsiya qilinadi?
7. To'rtburchak yuzdagi nuqsonlar qanday bartaraf etiladi?
8. Romb shaklidagi yuzda uchraydigan nuqsonlar qanday bartaraf etiladi?
9. Kelinlar uchun makiyaj qanday amalga oshiriladi?
10. Yuzni modellashtirish deganda nimani tushunasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Киреев П.Ф. Декоративная косметика и грим. М.: Легкая индустрия, 1980.
2. Ахабадзе А.Ф. Практическое пособие для косметическ-массажисток. М.: Медицина, 1985.
3. Школьников С.П. Основы сценического грима. М.: Высшая школа, 1976.
4. Сыромятникова И.С. Технология грима. М., 1987.
5. Тематическая подборка зарубежных информационных материалов по вопросам организации производственных видов услуг. Разделы 5,6. М.: ТсБНТИ, 1989.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2007-yil 21-maydagi "Xizmat ko'rsatish sohalarini takomillashtirish to'g'risida" gi qarorida aholiga xizmat ko'rsatish sohalari uchun malakali kadrlar tayyorlash zarurligi aytib o'tilgan. Bu zaruriyat e'tiborga olingan holda "Sartaroshlik san'ati va dekorativ kosmetika" yo'nalishlari uchun "Jozibali pardoqlash va grim" fanidan o'quv qo'llanmasi yaratildi.

"Jozibali pardoqlash va grim" o'quv qo'llanmasi hamma vaqt odamlarga qiziqish uyg'otgan kosmetika va grimga bag'ishlangan bo'lib, mazkur qo'llanma kosmetika va grim tarixidan boshlanib, hozirgi zamon kosmetikasi va grimigacha yoritib berildi. Qo'llanmada grim qilish jarayonida va kosmetikadan foydalanayotganda uchraydigan muammolar yechimi ko'rsatib berilgan. Mazkur o'quv qo'llanmasi orqali o'quvchi oddiy makiyajdan murakkab makiyajgacha, yuz terisi turini aniqlash va uni tozalash, massaj qilish, kosmetik niqoblar tayyorlash, qosh va kipriklarni bo'yash, yuzda uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish kabi mavzularni o'rganib chiqishi mumkin. Ushbu qo'llanmaning maqsadi - milliy guruhlarda tahsil olayotgan o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi nazariy va amaliy mashg'ulotlarda hamda mustaqil tayyorlanishlari uchun imkoniyat yaratib berishdir. Taqdim etilayotgan ushbu "Jozibali pardoqlash va grim" o'quv qo'llanmasi o'zbek tilida yozilgan ilk kitobning ikkinchi nashridir. Shu sababli unda bahsli o'rinlar bo'lishi mumkin. Qo'llanma haqidagi fikr va mulohazalaringiz bilan o'rtoqlashasiz, degan umiddamiz.

**S.A GANIXADJAYEV,
N.A. RAXMANOVA**

**JOZIBALI PARDOZLASH
VA GRIM**

O'quv qo'llanma

Muharrir *O.Jumayev*
Badiiy muharrir *M.Odilov*
Kompyuterda sahifalovchi *L.Abdullayev*

Nashr lits. AI № 174. Bosishga ruxsat 28.10.201 6da berildi.
Bichimi $60 \times 84^{1/16}$. Ofset qog‘ozi №2. Times garniturası.
Shartli b.t. 3,7. Nashr-hisob t. 3,9. Adadi 526 dona.
Buyurtma № 48.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100084, Toshkent, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI»
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
100000, Toshkent, A.Temur ko‘chasi, 60^a-uy.